

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Bir guruhda o'qib qoldim. Yuqori sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinfdagi ayrim soatlarni o'tayotgan ekan. Bizda ham shu muammo bor. Tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlari yuqori sinf o'qituvchisiga berilgan. Buning hisobiga soatlar qisqarib ketdi. Katta yoshli o'qituvchilar nafaqaga chiqamiz, deb ko'p dars olgan. Men esa 10 yildan buyon yarim stavkada ishlayapman. Shu ham adolatdanmi?

4-bet

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlarini o'tkazish bo'yicha tavsiya



6-bet

Yangi tayanch o'quv reja tasdiqlandi

Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2019-2020-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 266-sonli buyrug'i qabul qilindi.

8-9-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 17-avgust, shanba № 64 (9233)

Xalq ziyolilari gazetasi

Yosh kitobxonlar va eng yaxshi kitobxon maktablar aniqlandi



5-bet

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!



"Yangilangan maktab — yutuqlarga erishish asosi"

Eng ulug', eng aziz bayramimiz — Mustaqillik bayrami arafasida "Obod qishloq", "Obod mahalla" davlat dasturlari asosida chekka qishloqlar ham obod bo'lib, ko'chalar ravonlashmoqda, tibbiy maskanlar, ta'lim muassasalari, savdo do'konlari, kutubxonalar, yoshlar markazlari yangidan qurilmoqda, mavjudlari kapital ta'mirlanib, o'zgacha qiyofa kashf etmoqda.

Joriy yilda birgina Qarshi tumanida uchta yangi o'quv binosi qad rostladi. Jumladan, tumanning Yertepa qishlog'idagi 19-umumta'lim maktabiga qo'shimcha ravishda 315 o'rinli, Ko'chkak qishlog'idagi 3-maktab o'quvchilari uchun ham 315 o'rinli, Xonobod qishlog'idagi 66-maktabda ham qo'shimcha 240 o'rinli o'quv binolari

bunyod etilib, birin-ketin foydalanishga topshirilmoqda.

— Ta'lim muassasamizda 1 233 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi, — deydi Qarshi tumani Ko'chkak qishlog'ida joylashgan 3-maktab direktori Kamol Umarov. — 1993-yilda qurilgan 725 o'rinli maktabimizda ko'p sonli o'quvchilar uchun sharoitlar yetarli emas edi. "Obod qishloq" davlat dasturiga asosan yana 315 o'rinli yangi maktab binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu ko'chkakliklar uchun juda katta imkoniyat bo'ldi. Yangi maktab binosida 12 sinfxona, fizika va biologiya fanlariga mo'ljallangan o'quv-laboratoriya xonalari mavjud bo'lib, barcha qulayliklar yaratilgan.

3-bet

O'zimizning o'zbeklar

Noilojning iloji

Yaqinda Andijonga yo'lim tushdi. Taqdir taqozosi bilan uchala yo'ldoshim ham qirg'izistonlik o'zbek o'qituvchilari ekan. Yo'l-yo'lakay turli mavzularda suhbatlashib bordik.

— Hamkasbimiz Manzuraxonning nomzodlik hi-moyasiga keldik, — deydi Hayitxon ismli yo'ldoshlarim-dan biri.

— Hamkasbingiz Toshkentda turadimi?

— Yo'q, Jalolobodda yashaydi, universitetda birga ish-laymiz. Pedagogika fani bo'yicha nomzodlikni Qirg'izis-ton-dan kelib O'zbekistonda himoya qildi.

— O'zbekiston rahbariyatiga, Toshkentdagi pedagogi-ka universiteti olimlariga, kengash a'zolariga ming rah-mat, — suhbatga qo'shildi Qizlarxon. — Qizimizning ilm qilib, fan nomzodi degan ilmiy darajaga erishishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishdi...

Bunday minnatdorlikdan, ayollarning faxr to'la so'zlaridan ko'nglim ko'tarildi. Xayolimdan «Axir o'zbek-miz-da, yashash joylarimiz boshqa-boshqa bo'lsa ham, bir millatning farzandlarimiz», degan fikr kechdi. Yo'ldosh-larim shu tariqa himoyaning yuksak saviyada o'tgani-yu nomzodning mavzusi nafaqat Qirg'iziston aholisi, balki butun Markaziy Osiyo respublikalarida yashayotgan o'zbek bolalari uchun ham dolzarb ekani xususida menga so'zlab berishdi.

— Himoyada o'tirib, uzilib qolgan ilmiy-madaniy aloqalarimizni tiklasa bo'lar ekan-ku, degan o'y xayolim-dan o'tdi, — deydi Qizlarxon. — Albatta, buning uchun alohida shaxslarninggina sa'y-harakatlari kifoya qilmaydi. Bu borada davlatlarimiz o'rtasida ham turli shartnoma-lar, kelishuvlar bo'lishi lozim. Axir biz ham o'zbekmiz. Garchi Qirg'izistonda yashasak ham, bir ko'zimiz bilan bir qulog'imiz O'zbekistonda. Bu yerda bo'layotgan yu-tuqlardan quvonsak, kamchiliklarni ko'rib, yuragimiz ezi-ladi... O'zbek qayerda bo'lsa ham o'zbek-da, o'zinikiga intiladi.

Darvoqe, shunday: o'zbek qayerda bo'lsa ham o'zbek. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda qirq million-dan ko'p o'zbek bor. Shundan o'ttiz millionga yaqini O'zbe-kistonda istiqomat qilsa, qolganlari dunyoning turli mam-lakatlarida muqim yashashadi. Bir millionga yaqin o'zbek yashaydigan Qirg'izistonni ular otayurt deb bilishadi.

7-bet

Test — 2019 sarhisobi

Eng yuqori ball 238,6 bo'ldi

15-avgust kuni oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlari barcha hududlarda to'liq yakunlandi. Kirish test sinovlari respublikaning 60 ta oliy ta'lim muassasalari va ularning 30 ta filiallariga o'qishga kirish maqsadida ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar uchun 66 ta katta sig'imli binolarda o'tkazildi. Davlat test markazining rasmiy "Telegram" kanalida berilishicha, kunduzgi, kechki hamda sirtqi ta'lim shakli uchun oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlar tomonidan jami 1 066 925 ta ariza (2018-yilda — 814 952 ta) qabul qilindi. Shundan kunduzgi, kechki ta'lim shakllariga 731 918 ta; sirtqi ta'lim shakliga 335 007 ta ariza kelib tushgan.

Test sinovlarida 979 470 nafar abituriyentning ishtirok etishi rejalashtirilgan edi.

Test sinovlarini topshirgan 954 075 nafar abituriyentning natijalari hisoblandi, jumladan:

— kunduzgi, kechki ta'lim shakllarida 660 773 nafar;

— sirtqi ta'lim shaklida 293 302 nafar.

Test sinovlarida 24 930 nafar abituriyent qatnashmagan bo'lib, shundan:

— 16 913 nafari kunduzgi, kechki ta'lim shakli;

— 8 017 nafari sirtqi ta'lim shaklidan.

Qoida buzganligi sababli 465 nafar abituriyent test sinovlaridan chetlashtirilgan.

O'tkazilgan test sinovlari natijalari kunning ertasiga Davlat test markazining dtm.uz saytida e'lon qilindi.

Eng yuqori ballar (189,0 ball) 11 ta oliy ta'lim muassasasining 14 ta ta'lim yo'nalishida kuzatildi, jumladan:

— Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti ta'lim yo'nalishida;

— O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili va nemis tili ta'lim yo'nalishida;


— Toshkent moliya institutining Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) va Moliya ta'lim yo'nalishlarida;

— Qarshi davlat universitetining Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishida;

— Qoraqalpog' davlat universitetining Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida;

— Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Xalqaro iqtisodiyot va menejment (mintaqalar va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida;

— Buxoro tibbiyot institutining Davolash ishi (Buxoro) ta'lim yo'nalishida;



— Samarqand tibbiyot institutining Davolash ishi (Qashqadaryo) ta'lim yo'nalishida;

— Toshkent tibbiyot akademiyasining Davolash ishi (Sirdaryo) ta'lim yo'nalishida;

— Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishida;

— Toshkent davlat yuridik universitetining Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida kuzatildi.

Eng yuqori ball kirish imtihonlari 3 ta fan va ijodiy imtihondan iborat bo'lgan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida 232,1 ballni va Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishida 238,6 ballni tashkil etgan.

Umuman olganda, bu yilgi test sinovlari imtihonlari o'tgan yilgilarga qaraganda ancha tartibli tashkil etildi. Ahamiyatli jihati, bu yil yosh cheklovi bekor qilingani sababli, nuroniylar ham talaba bo'lish umidida oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirishdi. DTM ma'lumotlariga qaraganda, 25 yoshdan kichik abituriyentlar — 862 977 nafar; 25–30 yosh oralig'ida — 103 276 nafar; 40–50 yoshlilar — 14 014 nafar; 50 yoshdan kattalar — 672 nafari tashkil etdi. Masalan, kun.uz sayti shu yilning 7-avgust kuni Toshkent shahridagi "O'zbekiston" sport majmuasida oliy o'quv yurtlariga kirish davlat test imtihonining navbatdagi kunida 1940-yilda tavallud topgan abituriyent — Nikolay Staxanov ham imtihon topshirgani aks etgan suratlarini chop etdi.

Shuningdek, yana bir shov-shuvli voqealardan biri Andijon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi sirtqi bo'limiga ro'yxatdan o'tgan Dilnozaxon Abbosova betob bo'lishiga qaramasdan tez tibbiy yordam xizmati hamrohligida ADU Xorijiy tillar binosida test sinov-

larida ishtirok etgani bo'ldi. Bemor abituriyentga kerakli tibbiy yordam ta'minlangan holda imtihonlarda qatnashish imkoniyati yaratib berildi. Abituriyent test savollarini yotgan holatda ishlab, yiqinchiliksiz imtihonlarni yakunlagan Dilnozaxon yetarlicha sharoit yaratib bergan DTM va ADU mas'ul xodimlariga o'z minnatdorligini bildirdi.

Bu yil taqiqlangan vositalarni hududga olib kirishga va imtihon vaqtida ishlatishga uringanlar soni avvalgi yillarga nisbatan kam bo'ldi. Ammo abituriyentlar tomonidan bunday urinishlar hamon kuzatilgani achinarli hol. Davlat test markazi boshqarma boshlig'i Barno Rajabovning ta'kidlashicha, "shamolash"ga chiqib, qaytayotgan paytda turli "shpargalka" va telefonlar bilan qo'lga tushayotgan yoshlar ham, afsuski, bor. Bunday manzaralarga o'z vaqtida barham berilib, noo'rin xatti-harakat qilgan abituriyentlarga nisbatan dalolatnomalar tuzildi, ular darhol jarayondan chetlashtirildi.

O'tgan yillarda o'ringa-o'rin kirish holatlari ko'plab uchragan. Masalan, 2018-yili Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga kirish imtihonlari jarayonida bu hol kuzatilgani ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'lgandi. 2019-yili bu kabi holatlarning oldini olish uchun ikki karrali defekatsiyalash jarayoni yo'lga qo'yildi. Afsuski, 2019-2020-o'quv yili uchun test sinovlari jarayonida zamonaviy texnologiyalarni dog'da qoldiraman, degan "uddaburon uchar"lar ham topildi. Shu yilning 3-avgust kuni Davlat xavfsizlik xizmati Namangan viloyati boshqarmasi hamda viloyat ichki ishlar boshqarmasi hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida "Barkamol avlod" sport majmuasi paviloniga soxta hujjatlar bilan (biometrik pasportdagi va test sinovlariga kirish uchun DTM ruxsatnomasidagi rasmlarni almashtirib) "mijoz" — abituriyentning o'miga kirishga uringan

3 nafar talaba, ya'ni Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Namanagan davlat universiteti va Namangan muhandislik-texnologiya institutining talabalari aniqlandi. Abituriyentlarning noqonuniy yo'llar bilan o'qishga kirishga urinishini tashkillashtirgan shaxs — 1985-yilda tug'ilgan, Norin tumanida yashovchi A.K.D. ekani aniqlanib, tezkor tadbir davomida qo'lga olindi. Aniqlanishicha, A.K.D. "mijoz" abituriyentlarni 3 ming 500 AQSh dollari evaziga o'qishga kiritib qo'yishni va'da qilgan. "Kalla" bo'lishga so'z bergan "uchar" talabalarga ularga birlashtirilgan "mijoz" shartnoma asosida o'qishga kirsa, 800 AQSh dollari, "grant"ga kiradigan bo'lsa, 1 ming 200 AQSh dollari berishini aytadi. Ayrim "kalla"larga test kuni "mijoz"ning soxta pasporti va ruxsatnomasi bilan birga kelishilgan pul-larni bergan.

Shuningdek, Samarqandda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun o'tkazilayotgan imtihonlar davomida nazoratchilardan biri o'z singlisiga yordam berishga urinayotgan vaqtda qo'lga tushdi. 1993-yili tug'ilgan T.F. Samarqand shahridagi 72-umumta'lim maktabida direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan. U test imtihonlariga nazoratchi etib tayinlangan va bundan foydalanib, o'z singlisiga yordam berishga uringan.

Eng asosiysi, bu yilgi test imtihonining tashkiliy jarayoni bilan birga test savollaridan ham abituriyentlarning ko'ngili to'lgani bo'ldi. O'z bilimiga ishongan, har bir blokning barcha savollariga to'liq javob berib, yuz foizlik natija ko'rsatib, davlat grantiga talabgorlik qilayotganlar orasida qizlarning ham borligi testlar shaffof va adolatli o'tganidan darak beradi. Sababi o'tgan yillarda harbiy tavsianoma ega yigitlarga ball qo'shib berilishi qizlarning davlat grantiga kirish imkoniyatini yo'qqa chiqarayotgandi. Bu yil esa bu tartib bekor qilindi.

Abror UMARQULOV tayyorladi.

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

“Yangilangan maktab — yutuqlarga erishish asosi”

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Maktab binosini bunyod etish uchun davlat budjetidan 2 milliard 14 million so'm mablag' sarflandi. Qurilish ishlarini “Obod GM shahar qurilish” MChJ quruvchilari sifatli tarzda amalga oshirdi. Maktab rahbari hamda o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirib, quruvchilar mehnatiga tasanno aytdik.

Xalqimizning turmushini farovonlashtirish, eng chekka hududlarda ham munosib yashash, mehnat qilish va dam olish uchun sharoit yaratish, ayniqsa, qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash va mahallalarni obodonlashtirish maqsadida qabul qilingan “Obod qishloq” va “Obod markaz” davlat dasturlari doirasida Namanganda ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bunyodkorlik va yaratuvchanlik esa hamisha obodlik va ko'rkamlikka xizmat qilgan. Mazkur hayotiy haqiqatni Uchqo'rg'on tumani misolida ham ko'rish mumkin.



— O'quvchilarimiz bundan buyon barcha qulayliklarga ega bo'lgan sinfxonalarda tahsil oladi, — deydi maktabning kimyo fani o'qituvchisi Mehriniso Xudoyorova. — Sinfxonalarimizning qay bir jihatiga e'tibor qaratmang, barchasi kishi ko'nglini quvontiradi. Isitish tizimi deysizmi, yoritish tizimimi — bari ko'ngildagidek. Bundan biz — o'qituvchilar mamnunmiz.

Xuddi shuningdek, tumandagi 19-maktabda ham “Obod qishloq” dasturiga asosan 315 o'rinni qo'shimcha yangi maktab binosi bunyod etilib, barcha qulayliklar yaratildi.

— Mazkur maktabda faoliyat olib borayotgan 84 nafar pedagoglardan 21 nafarining yashab turgan uy-joylari dasturga binoan ta'mirlanib, obodonlashtirildi, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Meyli Boqiyev. — Bundan tashqari ushbu ta'lim muassasasida farzandlari ta'lim olayotgan kam ta'minlangan oilalarning sakkiztasiga o'quv anjomlari — yozuv taxtasi, stol-stullar yetkazib berildi.

Ma'lumot o'rinda aytadigan bo'lsak, 2019-yilda Investitsiya dasturiga asosan Qashqadaryo viloyatida 64 ta umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash uchun 90 mlrd 71 mln 500 ming so'm (52 ta maktab rekonstruksiya uchun 62 mlrd 429 mln 700 ming so'm, 12 tasini mukammal ta'mirlash uchun 27 mlrd 641 mln 800 ming so'm) mablag' ajratilgan bo'lib, dasturning tashrif bayoniga 38 ta hamda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturidagi 20 ta, hokimliklar taklifiga ko'ra 6 ta obyekt kiritilgan.

2019-yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturiga binoan 26 ta maktabda 18 mlrd 870 mln so'mlik qurilish-ta'mirlash, jumladan, 6 tasida rekonstruksiya, 7 tasida mukammal ta'mir, 13 tasida joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Joylardagi davr talabi darajasida bunyod etilayotgan ziyo maskanlarining keng va yorug' sinfxonalari belgilangan tartibda bezatilib, jihozlanmoqda. Bu qulayliklar, albatta, dars mashg'ulotlari jarayonida o'z samarasini beradi.

O'ktam MEYLIYEV,
“Ma'rifat” muxbiri

Suratda: Qarshi tumani Ko'chkak qishlog'ida joylashgan 3-maktabning yangi binosi.

Dastur asosida amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari tufayli shahar va qishloqlar, ta'lim, madaniyat va ishlab chiqarish binolari hamda inshootlarining qiyofasi o'zgarib, ko'rkam ko'rinish kasb etmoqda. 1- va 5-umumta'lim maktablari “Obod markaz”, 3-, 12- va 24-maktablar “Obod qishloq”, 13-umumta'lim maktabi esa Investitsiya dasturi asosida mukammal ta'mirlanyapti.

“Obod markaz” dasturiga ko'ra, ta'mirlash ishlari olib borilayotgan 1-umumta'lim maktabini 3 oy ilgari ko'rgan kishi qisqa vaqt mobaynida tamoman o'zgacha qiyofaga kirgan o'quv binolariga qarab ko'zlariga ishonmasligi mumkin. Jurnalistik mubolag'adan mutlaqo xoli bu e'tirof zahirida bu yerda mehnat qilayotgan quruvchilarning katta mahorati-yu salmoqli mehnati bor. Har yili qariyb 1 270 nafar o'quvchini bag'riga olayotgan bilim dargohining o'quv binolari o'tgan yillar mobaynida ancha eskirib qolgan, shiferi yorilgan, tomdan o'tadigan chakkadan hamma bezor bo'lgandi. Qishda isitib, yozda sovutib bo'lmas xonalar derazasini eslatuvchi qiyshiq romlarni asti so'ramang, eshik-derazalar yaroqsiz holga kelgandi. Suvog'i ko'chgan devorlar, uzilib ulanaverganidan butun yeri qolmagan elektr simlari qishda pand beraverganidan butun boshli sinfxonalarning chirog'i yonmasdi.

— Maktab “Obod markaz” dasturiga binoan ta'mirlanadi, degan gap bizga uzoq kutilgan xushxabar bo'ldi, — deydi direktor Olimjon Ismatulayev. — Ta'mirlash uchun 4 milliard 200 million so'm mablag' ajratildi. “Olimos-Uychi” MChJ tomonidan joriy yilning aprel oyida ish boshlangan edi. Bunyodkorlarning samarali mehnati tufayli belgilangan qurilish-ta'mirlash yumushlarining salmoqli qismi bajarildi. Yaqin kunlarda yangilangan makta-

bimiz foydalanishga topshiriladi. Biz quruvchilarning bajargan ishidan qoniqish hosil qildik.

Maktab yetakchisining izohidan keyin so'nggi qurilish yumushlari bajarilayotgan o'quv binolarini ko'zdan kechirdik. Eng avvalo, tomi yopilib, issiqlik va yoritish tizimi qo'ldan chiqarilibdi. Sport zalida pardozlash tugatilib, polga rezina to'shama qoplanmoqda. Ichki xonalar va yo'laklarda pardozlash yakunlangan. Tashqi hududda esa obodonlashtirish ishlari davom ettirilyapti. Maktab bosh binosiga kiraverishdagi asosiy yo'lakka zamonaviy bruschatkalar terilmoqda. Eng muhimi, qiyshaygan romlar o'rinda mo'tadil haroratni saqlaydigan va zamonaviy me'morlik talablariga javob beradigan MDF eshik-derazalari o'rnatilgan. Sifat va ko'rkamlikni ta'minlovchi materiallar — binoning mustahkamligini oshirish barobari-da xizmat muddatini ham uzaytirishi aniq.

— Yangi, bo'y-choy hidi ketmagan sinfxonalarni ko'rib, yaratilgan qulaylikdan rosa quvondim, — deydi o'qituvchi Feruza Boboyeva. — Ayniqsa, har bir xonaga suv tarmog'i tortilgani o'quvchilarga shaxsiy gigiyena talablariga rioya etishni o'rgatish, tozalik va sarishtalilikni asrasha juda muhim omildir. Pardozlashda bolalarning ko'z nurini himoyalaydigan, ko'zni charchatmaydigan ranglar tanlangani. Yangilangan maktab ta'lim-tarbiya ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yangi yutuqlarga erishishimizga xizmat qiladi, degan niyatdamiz.

— Shu kunlarda bu yerda 60 dan ziyod quruvchi ishlamoqda, — dedi ish yurituvchi Haydarali Xolmirzayev. — Pudrat ishlarining asosiy qismi tugallandi. 20-avgustda maktab jamoasi bizdan yangilangan ta'lim dargohini qabul qilib oladilar.

Uchqo'rg'on shahrida joylashgan yana bir ta'lim muassasasi — 5-umumta'lim maktabini ta'mirlash ham qizg'in davom etmoqda. Bunyodkorlik ishlarini bajarayotgan “Qo'g'ayqurilishsavo” MChJ quruvchilari 2 milliard so'mdan ziyod mablag'ni o'zlashtirdilar. Yangi o'quv yilini orziqib kutayotgan 13-umumta'lim maktabi o'qituvchi-o'quvchilarning ham shodliklari bir olam. 1000 dan ortiq o'g'il-qiz bilim olayotgan ushbu maktab allaqachon torlik qilib qolgan, bu maktabdan tashqari tashkil etiladigan turli tadbirlar va to'garak mashg'ulotlarni uyushtirishda katta qiyinchilik tug'dirardi. Maktab hovlisida 240 o'rinni qo'shimcha o'quv binosining qurilgani mazkur muammo-ga barham berdi.

Qo'g'ay qishlog'ida joylashgan

3-umumta'lim maktabi ham Uchqo'rg'onidagi eng yirik ta'lim muassasalaridan. Maktabda “Obod qishloq” dasturiga ko'ra, 3 milliard 601 million so'mlik ta'mirlash ishlarini bajarish rejalashtirilgan va loyiha-smeta hujjatlari tayyorlangan. Bosh pudratchi — “Go'zal kamolot” MChJ jamoasi tomonidan hozirgacha belgilangan ish hajmining salmoqli qismi bajarilgan. Binoning ichki va tashqi fasad qismida pardozlash, tashqi yo'lakka bruschatka yotqizish, xonalar poliga linoleum qoplash, isitish tizimini yangilash kabi ishlar davom ettirilyapti. Biroq sinf xonalari va maktab ichki yo'laklarida bajarilayotgan pardozlash ishlari sifatidan biroz ko'ngilimiz to'lmadi. Devor sirtlaridagi notekisliklar yo'qotilmagan. Ayrim xonalarning bo'yalgan devor va shift qismlarida chala qolgan joylari mavjud.

Ish yurituvchi Shuhrat Bozorovning e'tiborini anu shu kamchiliklarga qaratdik. Biroq u loyihada notekis devorni silliq qilish ko'rsatilmaganini pisanda qildi. Aslida, har qanday quruvchi o'ydim-chuqur devorni tekislamaguncha bo'y-choy surtmaydi. Avval devor sathi kerakli qurilish materiallari yordamida tekislanadi. So'ng bo'yash amalga oshiriladi. Sifatsiz ish ko'rar ko'zga xunuk manzara hosil qilayotganini nahot mutaxassislar sezishmadi. Aslida, bu savolni yagona buyurtmachi Namangan injiniring kompaniyasining qurilish obyektidagi bajarilayotgan ishlar sifatini nazorat qilishga mas'ul texnik mutaxassisiga bermoqchi edik. Ammo u bilan uchrashish, hatto telefon orqali bog'lanish imkoni bo'lmadi.

Direktor Ilhomjon Hayitaliyev ta'mirlash paytida yo'l qo'yilayotgan ayrim kamchiliklarni bo'yicha maktab kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan tanqidiy fikrlar bildirilganini ma'lum qilib, quruvchilar ularni yangi o'quv yili boshlanguncha bartaraf etishga va'da berishganini ta'kidladi. “Go'zal kamolot” MChJ mutasaddilari lafzlarning ustidan chiqadimi yo'qmi, buni vaqt ko'rsatadi.

Tuman xalq ta'limi bo'limining qurilish-ta'mirlash ishlariga mas'ul mutaxassislarining aytishicha, 12-, 30- va 24-umumta'lim maktablarida olib borilayotgan ta'mirlash yumushlari tez kunlarda yakunlanadi. Demak, Uchqo'rg'onida yurt ko'rkiga ko'rk qo'shadigan ilm dargohlari yanada ko'payadi. Ko'rkam maktablar esa yaratilgan qulay shart-sharoitlar va yangi imkoniyatlar tufayli o'quvchilar olayotgan bilim va ko'nikmalar mazmunini hamda sifatini oshirishga xizmat qiladi.

G'anisher AKBAROV,
“Ma'rifat” muxbiri

Vodiyda ilk xususiy universitet ochildi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida O'zbekistonda Hindistonning nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri — Sharda universiteti filialining tashkil etilganiga bag'ishlangan brifing bo'lib o'tdi.

Anjumanda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mutasaddilari, Sharda universiteti vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Mutasaddilar yig'ilganlarga universitet faoliyati, yo'nalishlari, qabul jarayoni hamda kirish imtihonlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 10-apreldagi "O'zbekistonda Sharda universitetini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida xalqaro oliy o'quv yurti Andijonda ochildi. Filialning yaqin bir necha yilda qad rostlaydigan yangi va zamonaviy binosi qurilishi uchun 20 million AQSH dollari miqdorida investitsiya ajratilgan.

Aytish kerakki, Hindistonda-

gi Sharda universiteti 175 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr, magistr va doktorantlarni tayyorlaydigan nufuzli xalqaro oliy o'quv yurti hisoblanadi. Ta'lim dargohi dunyoning turli burchaklarida yashovchi yigit-qizlar uchun 216 dan ziyod dasturlarni taklif etadi.



— Universitetga kirish imtihonlari boshlangan, ammo qabul jarayoni hamon davom etmoqda, — dedi

universitetning strategik rivojlantirish va loyihalarni boshqarish bo'limi boshlig'i Elan Rozi. — Mavjud uchta — axborot texnologiyalari, muhandislik va biznes fakultetlariga bu yilgi qabul kvotasi jami 400 o'rin etib belgilangan. Asosiy test imtihonlari 22-avgust kuni Toshkent va Andijonda bo'lib o'tadi.

Imtihonda abituriyentlarga kimyo, matematika hamda fizika fanlaridan 25 tadan, jami 75 ta test savoli beriladi. IELTS sertifikatiga ega yoki imtihonlardan tashqari o'tkaziladigan ingliz tilidagi test sinovlarida eng yuqori natijalarni qo'lga kiritgan talabgorlarga 100 foizgacha grant ajratilishi ko'zda tutilgan.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan brifingda qatnashchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Xaridorgir va hamyonbop mahsulotlar

Yangi o'quv yili oldidan joylarda an'anaviy maktab yarmarkalari tashkil etildi.

Zomin tumanidagi savdo shoxobchalari har qachongidan gavjum. Yakka tartibdagi tadbirkor G'ulom G'oibnazarov mudirlik qilayotgan do'konda ham o'quvchilar uchun zarur kiyim-bosh va o'quv qurollari mavjud.

— Nabiram Shohjahon boshlang'ich sinfda o'qiydi, — deydi xaridor Erkin Xudoyberdiyev. — Unga turli o'quv qurollari, rangli qalam, qiziqarli kitoblar sotib oldim. Mahsulotlarning barchasi o'zimizda ishlab chiqarilgan. Narxi ham ancha arzon.

Kitob do'konida xaridorlar uchun qator qulayliklar yaratilgan, sotuvchi Orzigit G'oibnazarovning ta'kidlashicha, oldindan o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv qurollari va adabiyotlar zaxirasi yaratilgan. Xaridorlarning istak va talablariga asosan kerakli mahsulotlar buyurtma asosida ham olib kelinmoqda. Bunday xizmat turlari xaridorlarga ma'qul kelmoqda.

Ayni kunda Jizzax viloyatining barcha tumanlarida



yaqin maktablar uchun savdo shoxobchalari, olis qishloq aholisi uchun ko'chma savdo xizmatlari tashkil etilyapti. Unda o'quvchilar uchun kiyim-kechak, o'quv qurollari va boshqa zarur vositalarni sotish yo'lga qo'yilgan. Ko'rsatilayotgan xizmat ko'lami va sifati xaridorlarni xursand qilmoqda. Yangi kiyim-kechak, o'quv qurollari ega bo'lgan bolajonlarning esa quvonchi cheksiz.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Do'stingni safga qaytar...

Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan maktab-internatda "Do'stingni safga qaytar!" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi tomonidan jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ruhiy sog'lomlashtirish, mam-lakatimizda yoshlar yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar mohiyatidan xabardor qilish, shuningdek, muassasa tarbiyalanuvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishish maqsadida tashkil etilgan muloqotda O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, ichki ishlar, madaniyat sohasi xodimlari, huquqshunolar, psixologlar, tuman hokimligi mas'ullari, 40 nafardan ziyod muassasa tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xususan, ular uchun munosib o'qish va ish sharoitlari yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Bu borada joylarda, ayniqsa, olis qishloqlarda Prezidentimiz tashabbusi bilan 5 muhim tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari muhim ahamiyat kasb etayotgani qayd etildi.

Davra suhbatlari doirasida Yoshlar

ittifoqi huzuridagi Respublika yoshlar markazi tomonidan bepul tashkil etilayotgan to'garaklarni tahlil etish bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasiga ko'ra, rus va ingliz tili, tikuvchilik hamda pazandachilik to'garak mashg'ulotlari har hafta reja bo'yicha o'tilayotgani aniqlandi.

"Jinoyat va jazo" mavzusida huquqiy viktorina o'tkazilib, faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, muassasa tarbiyalanuvchilarining to'garaklardagi faoliyatiga oid ijodiy ishlari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Avazbek XUDOYQULOV,
O'ZA muxbiri

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



✓ Aziz hamkasblar, hadeb dars setkasini muhokama qilavermasdan, sabr bilan kutib turaylik-chi. Bu yil qabul qilingan bir hujjatga ko'ra, tayanch reja 10 foizga qisqarishi rejalashtirilgan ekan. Hozir shuni bekor qilish masalasida ish olib borilayotganini eshitdim. Haqiqatan ham, agar dars soatlari qisqarsa, qanchadan qancha o'qituvchilar ishsiz qoladi. Bu hujjat faoliyatimizdagi eng asosiy manba hisoblanadi. Uni qabul qilishda uzoqni o'ylash kerak.

Baxtiyor SHARIPOV

✓ Bir guruhda o'qib qoldim. Yuqori sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinfdagi ayrim soatlarni o'tayotgan ekan. Bizda ham shu muammo bor. Tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlari yuqori sinf o'qituvchisiga berilgan. Buning hisobiga soatlar qisqarib ketdi. Katta yoshli o'qituvchilar nafaqaga chiqamiz, deb ko'p dars olgan. Men esa 10 yildan buyon yarim stavkada ishlayapman. Shu ham adolatdanmi?

DILFUZA

✓ Tuman markazida joylashgan ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktabda ishlayman. Qishloqning chekka hududlarida joylashgan maktablarning zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanayotgani quvonarli, albatta. Lekin tuman markazida joylashgan maktabimizdagi eski, foydalanishga yaroqsiz holga kelgan kompyuterlarga qarab hafsalam pir bo'lib ketadi.

O'QITUVCHI

✓ Maktabimizda 600 ga yaqin o'quvchi o'qiydi. Barcha boshlang'ich sinf xonalari bir xilda jihozlangan. O'quv qurollari masalasida ham qat'iy talab bor. Ota-onalarga yig'ilishlarda qanday turdagi o'quv qurollarini sotib olish aytildi. Mana bu — o'quvchilar o'rtasida muhit bir xil bo'lishiga olib keladi.

N.QAYUMOVA

✓ Bugun tumanda turib, avgust kengashi-ni kuzatdim. Taassurotim yaxshi. Kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldim. RTMdanda F.Abdul-layev va Sh.Ahmedovanning taqdimotlari juda ham tushunarli bo'ldi. Menda yangidan yangi g'oyalar tug'ildi.

Dildor NURMUHAMMEDOVA

✓ Boshlang'ich sinf o'qituvchisiman. Doim bitta muammo haqida bosh qotiraman. Nega 1-sinfda "ng" harf birikmasini bosh harf sifatida o'rgatish uchun bir soat, kichik harf sifatida o'qitish uchun bir soat ajratilgan. Aslida bu harfga deyarli ehtiyoj yo'q. Tilimizda sanoqli so'zlar bor, xolos. Menimcha, bu masala bo'yicha ham jiddiy o'ylash kerak.

Go'zal PINYOZOVA

Avgust kengashlari ish boshladi

Xalq ta'limi vazirligida an'anaviy avgust kengashining respublika o'quv-amaliy seminari 15-16-avgust kunlari o'tkazildi. Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov tadbirni ochib berdi. Vazir o'z nutqida yurtimiz xalq ta'limi xodimlariga murojaat qilib, yangi o'quv yilida milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon intilishimiz lozimligini ta'kidladi.

— O'tgan yil davomida ko'pgina maktablarning shart-sharoiti va moddiy-texnik bazasi yaxshilandi, — dedi vazir. — O'qituvchilarning mavqeyi va maoshi oshirildi. Yangi o'quv yilida ta'lim sohasidagi katta islohot va o'zgarishlarni o'zimizdan



boshlaylik. Endi o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi, ular o'z qobiliyatidan kelib chiqib qo'shimcha bilim va malaka oltirishi muhim vazifa bo'ladi. Masalan, hududlardagi muassasalarda kompyuterlar ishlatilmay eskiradi. Vaholanki, bolalar zamonaviy axborot texnologiyalarini bekam-u ko'st o'rganishi, maksimal darajada foydalanishi kerak. Chunki har ikki yilda

kompyuterning tannarxi ikki barobar arzonlashib ketadi.

Tadbirda Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi mutasaddilari, tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi IDUM direktorlari ishtirok etishdi. Videoseminar tarzida tashkil etilgan avgust kengashini Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va tuman xalq ta'limi bo'limi xodimlari onlayn tarzda kuzatdi. O'quv-seminarda so'zga chiqqan Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari A.Umarov, Respublika ta'lim markazi direktori o'rinbosari M.Pardayeva va boshqalar o'quv yilidagi dolzarb masalalarni muhokama qilishdi. Jumladan, yangi o'quv yilini chekka hududlarda joy-

lashgan e'tibortlab maktablardagi kamchiliklarni o'rganishdan boshlash, o'qituvchilarni qo'shimcha tashkiliy ishlarga jalb etmaslik, o'quvchilarning puxta bilim olishiga ko'maklashish, o'tgan o'quv yilida "Kitoblar karvoni" sifatida maktablarga yetkazilgan 2,6 million nusxadagi qo'shimcha adabiyotlarning mutolaa qilinishini ta'minlash maqsad qilindi. Ta'kidlandiki, bu yil barcha darsliklarning elektron varianti 7 tilda yaratilib, axborot portaliga kiritildi. Fizika va algebra darsliklari ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun alohida chop etildi. Bu imkoniyatlardan o'g'il-qizlar samarali foydalanishi kerak, albatta.

An'anaviy avgust kengashining ikkinchi bosqichi 19-20-avgust kunlari viloyat, uchinchi bosqichi 22—24-avgustda tuman (shahar) miqyosida tashkil etilib, trener-o'qituvchilar tayyorlanadi.

Shoira BOYMURODOVA,
"Marifat" muxbiri

Bugun aksariyat bolajonlarimizning kitob o'qishga ishtiyoqi ortib borayotgani quvonarli. Kitob do'konlarida kattalar qo'lidan tutib, kitob tanlayotgan kichikintoylarni ko'rsam, ich-ichimdan ana shunday manzaraning ko'proq guvohi bo'lishni istayman. Ayniqsa, poyoniga yetayotgan yozgi ta'til kitobsevar bolajonlar uchun ayni muddao bo'ldi, desam yanglishmayman.

"Yosh kitobxonlar" aniqlandi



Ko'p asarlarni o'qishga, undagi qahramonlar kechinmalarini anglashga ko'proq imkoniyat bor, degani bu. Poytaxtdagi G'afur G'ulom nomidagi istirohat bog'ida ana shunday kitob ixlosmandlari jam bo'ldi.

Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan kitobxonlikni targ'ib qilish orqali o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy tahdidlarga nisbatan sog'lom immunitetni rivojlantirish maqsadida "Yosh kitobxonlar" ko'rik-tanlovi tashkil etilgan edi. Ushbu ko'rik-tanlov respublikamizdagi 10 mingga yaqin maktablarni qamrab olgan holda o'tkazildi. Ishtirokchilar tanlov nizomidan kelib chiqqan holda ikkita shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Eng kuchli deb topilganlar tanlovning respublika bosqichiga qatnashish uchun tavsiya etildi. Ko'rik-tanlovning final bosqichida respublikamizning 14 hududidan jami 56 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tanlov qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tdi. Ishtirokchilar g'olib bo'lish uchun o'zlarining bor ijodiy salohiyatlarini namoyish etib, eng kuchli jihatlarni ko'rsatishga harakat qildilar.

— Odam jismonan baquvvat,

bilimli, har ishta chaqqon, epechil bo'lishi mumkin. Ammo oqko'ngil, iymon-e'tiqodli, insonparvar, yurtparvar bo'lmasa, hayotda o'zidan yaxshi nom, yaxshi iz qoldirolmaydi. Adabiyot va san'at bolaning ana shunday go'zal tuyg'ular,

lar, fazilatlar sohibi bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi, — deydi Respublika bolalar kutubxonasi mutaxassisi Ulug'bek Yodgorov.

Tanlov yakunida hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra eng yuqori ball olgan kitobxon o'quvchilar aniqlab olindi:

1-o'rin — Namangan viloyatining "Yosh kitobsevarlar" jamoasi;

2-o'rin — Toshkent shahrining "Bilimdonlar" jamoasi;

3-o'rin — Samarqand viloyati jamoasi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatining "Baxtli bolalik" jamoasi "Eng zukko kitobxon jamoa", Xorazm viloyatining "Iftixor" jamoasi "Eng yaxshi teatr-sahna ko'rinishini ochib bergan jamoa" nominatsiyalari bilan taqdirlandi.

Tashkiliy qo'mita tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchilarga maxsus diplom, ko'rik-tanlov logotipi tushirilgan statuetka hamda esdalik sovg'alari topshirildi. Qolgan barcha ishtirokchilar Xalq ta'limi vazirligining "Ko'rik-tanlovning faol ishtirokchisi" diplomini bilan taqdirlandilar.

Nazokat XOLMETOVA,
"Marifat" muxbiri
V.Grarkin olgan suratlari.

Qaysi maktabning kitobxoni ko'p?

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusni amalga oshirish va bu orqali ijobiy natijaga erishish bugungi o'qituvchining birlamchi maqsadiga aylandi.

Xalq ta'limi vazirligi va Respublika bolalar kutubxonasi hamkorligida tashkil etilgan "Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi" ko'rik-tanlovi o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikning keng omallashib borayotganini isbotladi. Ko'rik-tanlovda ishtirok etgan maktablar tanlov nizomidan kelib chiqib, dastlab hududiy bosqichlarda bellashgan edilar. Eng kuchli deb topilgan maktablar tanlovning respublika bosqichida qatnashdi.

Yashnobod tumanidagi 103-maktab-internatda bo'lib o'tgan yakuniy bosqichda mam-lakatimizning 14 hududidan jami 84 nafar ishtirokchi qatnashdi. 4 shart bo'yicha har bir jamoa o'z ijodiy salohiyati, kitobxonlik darajasi, fikrlash doirasi, topqirligini namoyish etdi.

Noan'anaviy tarzda, milliy urf-odatlar, o'zbekona lutfni tarannum etgan holda 1-shartda kitobxonlar o'zlarini tanishtirdilar. 2-shartda ularning bilimlari, o'qigan badiiy asarlari borasidagi fikr-mulohazalari savol-javob tariqasida sinovdan o'tkazildi. 3-shart maktab yoshlar yetakchilari tomonidan olib borilayotgan ishlar taqdimotiga bag'ishlandi. Bunda yoshlar yetakchilari, ning o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish borasidagi samarali tajribalari namoyish etildi. Tanlovning 4-bosqichi ishtirokchilarning ijodiy qobiliyatini sinovdan o'tkazish bilan birga, barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlandi. Sahnada jonli kuy-qo'shiq ijrosi, aktyorlik mahoratining namoyish etilishi kitobga oshno bu yoshlarning nafaqat adabiyotga, balki san'atga ham qiziqishi baland ekanini ko'rsatdi.



Namangan viloyatidagi 600 dan ziyod maktab shaharini himoya qilgani keldik, — deydi Uychi tumanidagi 12-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zamiraxon Umarova. — Maktabimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish maqsadida ko'plab ishlarni amalga oshiryapmiz. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan 5 yillik hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Uning natijasida o'quvchilarning ko'plab adabiy kechalar, professor-o'qituvchilar ishtirokidagi darslarda qatnashmoqda. Bundan tashqari, maktabimizda 2 yil muqaddam dramatik truppa tashkil etdik. Bu truppada 20 dan ortiq badiiy asar o'quvchilari tomonidan sahnalashtirildi. Mana shu sahna asarlari tuman markazidagi madaniyat saroyida ta'til davomida keng xalq ommasiga o'quvchilar tomonidan taqdim etildi. Ushbu dramatik truppa hozirda 40 ga yaqin o'quvchini qamrab olgan. Bunda ishtirok etayotgan o'g'il-qizlar badiiy asarni sahnalashtirishdan ol-

din diqqat bilan o'qib chiqishadi. Mushohada etib, so'ng sahnalashtirishga kirishadilar. O'quvchi sahnada asar qahramonlarining dardini, holatini yanada chuqurroq his etadi va bu asar, undagi g'oya o'quvchi xotirasidan chuqur joy egallaydi. Bu orqali ko'plab o'quvchilarning badiiy adabiyot o'qishga kirishdi. Ushbu tajriba o'z natijasini berib, o'tgan yili o'tkazilgan "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida o'quvchimiz 3-o'rin sohibi bo'ldi. O'quvchilarning o'zaro o'tirib asardagi voqealarni, qahramonlar obrazini muhokama etishlari menga zavq bag'ishlaydi. Bu tajriba ustida yanada ko'proq ishlagim keladi.

Tanlov natijasiga ko'ra, 1-o'rinni Roman tumanidagi 7-maktab jamoasi egalladi. 2-o'rinni Sharof Rashidov tumanidagi 14-maktab, 3-o'rinni Muzrabot tumanidagi 5-maktab jamoalari munosib deb topildi. G'olib maktab jamoalariga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi. Tanlovda faol ishtirok etgan o'quvchi va o'qituvchilar turli nominatsiyalar bilan taqdirlandilar.

Zilola MADATOVA
"Marifat" muxbiri

Assalom ona yurt, tonglar o'lkasi!

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omoni!" shiori ostida "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlarini o'tkazish bo'yicha tavsiya

Mamlakatimizdagi barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ushbu tadbir yuqori saviyada o'tkazilishi uchun quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

✓ umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlarini joriy yilning 2-sentabr kuni soat ertalabki 8:00 da "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omoni!" shiori ostida tashkil etish;

✓ maktab maydoni mustaqillik bayrami kayfiyatida bayramona "Birinci qo'ng'iroq" va Mustaqillikning yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omoni!" shiori bilan bezatiladi (maktab imkoniyatidan kelib chiqqan holda sahna qo'shimcha bezaklar bilan ham bezatilishi mumkin);

✓ "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlarini maktab hovlisi, bog'ida yoki soya-salqin ochiq maydonlarda o'tkazish hamda maktab hududiga texnika vositalari va begona shaxslarning kiritilmasligini ta'minlash;

✓ tadbirga o'quvchilar maktab ustavi bilan tasdiqlangan maktab formasida kelishini ta'minlash;

✓ tadbirlar o'tkaziladigan joylarni talab darajasida jihozlash, gigiyena va tozalik talablariga muvofiq sharoitlar yaratish, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holda o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash;

✓ umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tadbirlarning tartibli o'tishini ta'minlash maqsadida joylardagi o'zini-o'zi boshqarish organlari, ota-onalar va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari bilan hamkorlik qilish;

✓ maktab rahbariyati tomonidan tadbir ishtirokchilarini mustaqilligimizning yigirma sakkiz yillik bayrami hamda "Birinci qo'ng'iroq" bilan tabriklash jarayonida yurtimizda so'nggi yillardagi erishilgan yutuqlar, amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, ta'lim tizimidagi islohotlar to'g'risida aniq raqamlar va dalillar keltirilgan holda ma'lumot berish;

✓ tadbirga faxriy o'qituvchilar, ota-onalar, kasaba uyushmasi, mahalla va hamkor tashkilotlarni taklif etish;

✓ "Birinci qo'ng'iroq" tadbiri boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda 30 daqiqadan oshmasligini ta'minlash;

✓ tadbirni tashkil etishda maktabning Kuzatuv kengashi a'zolari faol ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq.

"Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omoni!"

(Umumta'lim maktablari uchun "Birinci qo'ng'iroq" tadbirining namunaviy senariysi)

"Birinci qo'ng'iroq" tadbiri ta'lim muassasasining rahbari boshchiligidagi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha di-

rektor o'rinbosari, o'qituvchi-murabbiylar, Yoshlar ittifoqi yetakchilari tomonidan rejalashtiriladi va namunaviy senariy asosida maktab senariysi ishlab chiqilib tasdiqlanadi. Tadbir barcha umumta'lim maktablarida ertalab soat 8:00 da boshlanib, soat 8:30 da yakunlanishi maqsadga muvofiq. Maktabning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur tadbirga barcha sinf o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

Tadbir ishtirokchilari (2 nafar boshlovchi va ishtirokchi o'quvchilar) Vatanni madh etuvchi qo'shiq yoki musiqa sadolari ostida sahnaga tashrif buyurishadi.

1-boshlovchi:

— Assalomu alaykum mehri daryo ustozlar va qadrlı mehmonlar!

2-boshlovchi:

— Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Sizlarni mustaqilligimizning 28 yilligi hamda yangi o'quv yilining boshlanishi darakhchisi bo'lgan "Birinci qo'ng'iroq" bilan chin dildan tabriklaymiz.

1-boshlovchi:

Assalom ona yurt, tonglar o'lkasi, Ta'rif, tavsifingning yo'q nihoyasi.

2-boshlovchi:

Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq, Bu o'zbek elining o'z madhiyasi. (So'ng O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi.)

1-boshlovchi:

— Azizlar, tadbirni ochib berish uchun so'zni maktabimiz direktori _____ ga beramiz. Marhamat.

2-boshlovchi:

Istiqlol bunchalar go'zal bu noming, Non kabi e'zozli jondek shirin bol. Yer shari yo'lladi otashin salom, Assalom o'zbekim, qutlug' istiqlol!

2-boshlovchi:

Assalom maktabim, muqaddas dargoh, Assalom ustozlar, kasb-kori saboq. Assalom do'stlarim, menga qo'sh qanot, Sinfidosh, hayotga ishonch bilan boq.

1-boshlovchi: — To'g'ri ta'rifladigiz, ustozlar bizga saboq beradigan mehri daryodek jo'shqin aziz va mo'tabar insonlardir.

2-boshlovchi:

Ulug' donish ajdodlarim beshigisan, Taraqqiyot kalitining eshigisan. San'atkorning dildan aytgan qo'shig'isan, G'olib farzandlarning yutug'isan, Vatanim.

(O'quvchilar ijrosida qo'shiq va raqs ijro etiladi)

1-boshlovchi: — Yurtimiz 1991-yil 31-avgustda o'zining mustaqilligini



e'lon qildi va 1-sentabr "Mustaqillik kuni" deb e'tirof etildi.

2-boshlovchi:

— Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng biz o'zligimizni, qadriyatlarimizni, ma'naviyatimizni teran anglay boshladik. O'zbek shonu shavkati, g'ururi dunyoga tanildi.

(Sahnada 6 nafar o'quvchi Vatan haqida she'r o'qiydi)

1-o'quvchi:

Bu dunyoda jannatmonand yerlar bisyor, Bu dunyoda oqu qaro ellar bisyor, Ammo yo'qdir bu dunyoda sendek diyor, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

2-o'quvchi:

Tuprog'ingda ajdodlarim izi qolgan, Bobolarim terlarining tuzi qolgan, Har gardida momolarim ko'zi qolgan, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

3-o'quvchi:

O'zbek elim, nuridiydam, qarog'imsan, O'zbek elim, osmonim-u tuprog'imsan, Ham quvonchim, ham baxtim-u firog'imsan, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

4-o'quvchi:

Beshigingda allalading dunyolarni, Dunyo ochgan necha-necha daholarni, Bolam deding yuraklari adolarni, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

5-o'quvchi:

Sohibqiron qo'llarida qalqon bo'lding, Ulug'bekning nigohida osmon bo'lding, Mirzo Bobur yuragida armon bo'lding, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

6-o'quvchi:

Qo'li qadoq dehqon elim, sulton elim, Ko'ksi yurtga doim balogardon elim, O'z yurtiga sohibqiron, xoqon elim, Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.

Yangi o'quv yilida maktabga dastlabki qadamini qo'yayotgan 1-sinf o'quvchilarini tabriklash uchun mahalla qo'mitasi, ota-onalar va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillariga so'z beriladi.

1-boshlovchi:

— Mana, tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetib bormoqda. Barchangizni maktab qo'ng'irog'i sadolari ostida 2019-2020-o'quv yilining birinchi darsiga chorlab qolamiz. Aziz o'quvchilar, yangi o'quv yilida a'lo baholarga o'qib, Vatanimizning yanada rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadigan dono farzandlar bo'lib yetishishingizni tilab qolamiz.

2-boshlovchi:

Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin O'zi yemay o'g'luga tutgan. Sen o'zingsan farzandlar shonin Asrlardan opichlab o'tgan. Ona xalqim jon tanim manim, O'zbekiston, Vatanim manim.

(Shundan so'ng birinchi qo'ng'iroq chalinadi. Qo'ng'iroq chalinib bo'lgandan so'ng S.Nazarxonning "Ulug'imsan, Vatanim" qo'shig'i ostida o'quvchilar o'z sinfxonalariga kuzatiladi).

(Senariyga ijodiy yondashgan holda o'zgartirishlar kiritish mumkin).

O'zimizning o'zbeklar

Noilojning iloji

(Davomi. Boshi 1-betda.)

O'zbeklar tarixi bilan shug'ullanib, risolalar yozgan qirg'izistonlik professor Ulug'bek Abdusalomov o'zining «Biz kimmiz?» kitobida shunday yozadi: «...Tarixni yozmaslik — erinchoqlik yoki tarixiy manbalarning yo'qligidan emas, balki totalitar tuzum «international» siyosatining natijasi bo'ldi. Men O'zSEda o'zbeklarning kelib chiqishi to'g'risida ma'lumot berilgan bo'lsa kerak, deb Ensiklopediyaning 13-, 14-jildlarini qaragam, o'zbek degan millat to'g'risida hatto maqola berilmadi... AQShning Chikago shtatida 1966-yili 200 ming nusxada nashr qilingan «Jahon qomusiy lug'ati»da esa o'zbeklar to'g'risida maqola berilgan bo'lib, unda shunday deyiladi: «O'zbek — jahon xalqlari orasida birinchilardan, turkiy xalqlar o'rtasida birinchi bo'lib o'troqlashgan, madaniy tushum kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat...».

Biz mazkur maqolamizda o'zbek millati tarixi haqida qalam yuritmoqchi emas-miz, zotan, xalqimiz tarixini o'rganaman, degan odam uchun bugunga kelib juda ko'p manbalarni mavjud. Ushbu maqolada tashqarida yashayotgan, jumladan, qirg'izistonlik o'zbeklarning ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuq va muammolari bilan fikrlashmoqchimiz, xolos.

Xo'sh, bugun Qirg'izistonni otayurt deb bilgan o'zbeklar bu borada qanday yutuqlarga erishdilar? Avvalo, bu yerda keyingi yigirma-yigirma besh yil orasida boshqa millatlar qatori o'zbek bolalarining o'qish, ta'lim-tarbiya olishlari uchun bir qadar sharoitlar yaratildi. O'sh shahrida o'zbek-qirg'iz universiteti, Jalolobod shahrida Olim Botirov nomidagi xalqaro universitetning tashkil etilganini alohida ta'kidlash kerak. Ayni paytda o'zbek maktablari qatoriga xususiy maktab va litseylar ham qo'shildiki, bu ilm maskanlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning yangicha usullaridan ham keng foydalanilmoqda. Bu borada «Sotvoldi hoji» xalqaro xayriya jamg'armasiga qarashli o'zbek litseyi faoliyati, ayniqsa, o'mak bo'ladigan darajada edi. Afsuski, Qirg'izistonda 2010-yilda kechgan mud-hish fojialar oqibatida Olim Botirov nomidagi xalqaro universitet hamda «Sotvoldi hoji» xalqaro xayriya jamg'armasiga qarashli o'zbek litseyi faoliyati to'xtab qoldi.

Ma'lumki, universitet, litsey va maktablar ta'lim-tarbiya o'chog'i, xolos. Bolalarning, talabalarning qay darajada bilim sohiblari, tarbiyalangan inson bo'lib yetishishlari ko'p jihatdan ana shu o'choq ichida yonayotgan olovga bog'liq. Bu olovning tafti — berilayotgan bilimlar o'quvchilarni qalbga qanchalik kirib bormoqda? O'zbek tilidagi darsliklarning ahvoli bugungi kun talabalariga javob beradimi? Va nihoyat, universitetlar, maktablarda o'zbek tilining o'rni, mavqeyi qanday?

Ayniqsa, respublikalar o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu savollar yanada dolzarb bo'lib turibdi. Chunki nima demaylik, sobiq ittifoq davrida barcha respublikalarda yashaydigan o'zbeklar uchun

O'zbekiston asosiy madaniy va ma'rifiy markaz hisoblangan. Respublikalarda, jumladan, Qirg'izistondagi o'zbek o'qituvchilarining 90 foizi O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida tahsil ko'rishgan. Darsliklar, gazeta-jurnallar, badiiy kitoblarni O'zbekistondan yetkazib berilgan. Ittifoq tarqab ketgach esa tashqaridagi o'zbeklar ana shunday madaniy-ma'rifiy markazdan mahrum bo'lib qolishdi. O'rta chegaralar tortilib, aloqalar deyarli uzildi. Ayniqsa, O'zbekistonda lotin alifbosiga o'tilgach, masala yanada chuqurlashdi. Kechagi kungacha ham o'zbek maktablarida bir paytlar O'zbekistonda chiqarilgan darsliklardan foydalanib kelindi. Bu birinchi noilojning iloji edi. Ammo vaqt hamma narsani yemiradi, qaratadi, eskirtiradi. Bundan o'n besh-yigirma yil avval yaratilgan darsliklar bugunga kelib nafaqat jisman, ayni paytda ma'nadan ham eskirdi. Ulardan foydalanishning iloji bo'lmay qoldi. Qirg'izistonlik o'zbek yetakchilarining qarshisiga «Nima qilmoq kerak?» degan mangu savol yana qalqib chiqdi. Shu boisdan bir qator markazlar tashkil etilib, ularda o'zbek maktablari uchun darsliklar yaratila boshlandi. Ammo bu ham muammoni hal qilgani yo'q. Gap shundaki, yaratilayotgan darsliklar mazmun jihatdan talabga javob bermaydi. Bu haqda Suzoq tumanidagi Do'ma ota nomidagi maktabning o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi Sohobxon Razzoqova aytgan qat'iyat hamon yodimda: «...6-sinf uchun chiqarilgan yangi «qarsillagan» «O'zbek adabiyoti» darsligidan tashqari yana naq yettita fandan yangi darslik olishiyapti. Darsliklarning usti shunaqa chiroyli, sifatli va puxta ishlanganki, ko'rib havas qilasiz. «O'zbek adabiyoti»ni qo'limga olib, asta varaqlay boshladim, lekin mavzularning tartibini uncha anglay olmadim. Mundarijada bir-biriga sira qovushmaydigan mavzularga ko'zim tushdi. 5-sinfda o'tilgan ayrim keng mavzular 6-sinfda qayta berilgan. Masalan, X.To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romanidan olingan ayrim boblarni biz 5-sinfda besh soat o'qib, asar yuzasidan bilimlarimizni mustahkamlab, yozma ishlarni ham yozib bo'lgandik. 6-sinfda aynan o'sha boblar va yozma ish yana takror berilgan...».

O'qituvchi «O'zbek adabiyoti» darsligidagi ko'plab xato va kamchiliklar haqida gapirib, shunday xulosa qiladi: «...Undan ko'ra Toshkentdagi «O'qituvchi» nashriyotida chiqarilgan «Tashi tutun, ichi butun» bo'lgan eski nashrdagi darslikni yangilab bersa, durust bo'larmidiki?»

Ko'rinib turibdiki, Qirg'izistondagi o'zbek maktablari uchun muqovasi titilib, yirtilib ketgan bo'lsa-da, ammo ma'nosi to'liq bo'lgan («Tashi tutun, ichi butun») O'zbekistonda nashr qilingan darsliklar a'lo. Bu fikrlarni 6-sinf uchun chop etilgan «O'zbek tili» va boshqa fanlar darsliklari haqida ham aytish mumkin. Bunday fikrlarni boshqa bir o'qituvchi ham tasdiqlaydi: «6-sinf uchun yaratilgan yangi «O'zbek tili» darsligida olmosh so'z turkumini o'rganishga 12 ta paragraf ajratilgan. Vaholanki, A.G'ulomov, I.Abdullayev, Z.Ma'rufov va M.Olimxonova

yaratgan avvalgi darslikda olmosh so'z turkumi uchun 8 paragraf berilgan, xolos. Unda olmosh so'z turkumiga berilgan ta'rif qisqa, lo'nda va yodlashga qulay. Masalan: «Ot, sifat, son o'rni qo'llaniladigan so'zlar turkumi olmosh, deyiladi». Hozirgi darslikda esa ta'riflar ancha murakkab, yodlashga qiyinchilik tug'diradi... Muammoni ko'paytirmasdan, Toshkentda nashr qilingan darslikni lotin alifbosidan kirill alifbosiga o'girish, yangi darslik yaratishdan ham oson, ham arzon-ku! Yo bu ishini qilishga ham kimningdir biznesi xalal beryaptimi?» deb savol qo'yadi o'qituvchi.

Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Munavvarxon Yusufjonova darsliklardagi g'alizliklar, xatolar haqida gapirib, «...Esizgina, muallifning vaqti, esizgina kitobga sarflangan mablag', o'quvchilarning umri-yu o'qituvchilarning asablari», deya afsuslanadi.

O'z o'rni batafsil tanqid qilingan darsliklar haqida aytilgan fikrlarni yana bir bor qaytarishdan maqsad, «O'lganing ustiga tepgan» qilish emas. Gap darslik yaratishning qiyinligi, muammolari haqida. Respublikalar o'rtasidagi aloqalarning uzilgani oqibatlarida. Darslik shunchaki qo'llanma emas, bita darslik kamida o'n yil xizmat qilishi lozim. Aks holda, u darslik bo'lmaydi. Buning uchun esa mualliflar darslik yaratish maktabini o'tagan, tajribali, ko'pni ko'rgan, eng muhimi, har jihatdan savodli ijodkor bo'lishlari lozim. O'sh va Jalolobodda savodxon, tajribali domlalar, mualliflar ko'p, ammo darslik yaratish uslublari yo'q. Shunday bo'lsa-da, darsliklar yaratishga kirishilganing o'zi katta yutuq. Zero, bu ikkinchi noilojning ilojidir...

Ko'rib turganingizdek, Qirg'izistondagi o'zbek maktablarda ta'lim-tarbiyani susaytirmaslik uchun dastlab O'zbekistonda nashr etilgan eski darsliklardan foydalanildi. Keyinroq esa o'zlari ham darsliklar yaratishdi. Lekin darslik yaratishda muammolar chiqavergach, boshqa — uchinchi noilojning iloji sari qadam qo'yildi. Bu ayrim o'zbek maktablarida darslarni rus tiliga o'tkazish haqidagi qarordir.

Yo'q, bu qarorni hukumat yoki maorif vazirligi chiqargani yo'q. Bu qarorni o'zbek ota-onalari, o'zbek o'qituvchilari, mutaxassislari qabul qilishdi.

— XXI asrni kompyuter asri deyi-shadi, — degan edi professor Ulug'bek Abdusalomov. — Haqiqatan ham, hayotimizdagi juda ko'p ishlar kompyuter orqali qilinadigan bo'ldi. Lekin o'sha kompyuterni boshqaradigan, u bilan mu-loqotda bo'ladigan odamni tarbiyalash ishlari qay ahvolda? Mutaxassislar bolani o'qis-in, yaxshi bilimli kadr bo'lib yetishsin, deb harakat qilishsa, ota-onalarning ayrimlari «O'qib nima bo'larding, undan ko'ra Rossiyaga borib ishlab, pul topib kel», degan va bugungi kunda oddiy maqsadga aylangan talablarni qo'yadilar. Maktablardagi sharoit o'tgan asrning 80-yillari darajasida. O'chakish-ganday, maktablarda darsliklar yetish-maydi. Borlari chalakam-chatti tayyor-

langan. Erkak o'qituvchilar maktabni tark etishgan. Bugun maktablardagi 60 foizdan 95 foizgacha o'qituvchilarni ayollar tashkil etadi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda islohotlar dastlab maorif sohasidan boshlanishini aytib o'tirmasa ham bo'ladi. Agar oddiy o'qituvchi bir stavka darsiga kamida 300 dollar miqdorida haq olganda edi, o'qituvchilik kasbi bu darajada xor bo'lmasdi. Ana o'shanda maktab darsliklari eng kuchli uslubchilar tomonidan yaratilgan va oqibatida bilimdon yoshlar yetishib chiqqan bo'lardi. Bugungi o'zbek tilida o'qitiladigan maktablarda vaziyat qay darajada ekanini bilish uchun bir faktga e'tibor berish kerakka o'xshaydi. Ya'ni ayrim o'zbek maktablarida ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflar ochilgan va o'sha sinfga farzandlarini o'qishga berishga intilgan ota-onalar ko'p. Ayrim o'qituvchilarni fikricha, agar mutaxassis bo'lsa, yuqori sinflarda ham o'qish rus tilida olib borilishi samara berar ekan. Sababi ota-onalar bolaning intilishini ko'rib, unga e'tibor berishmoqda. Darsliklar ham sifatli.

Suhbatdoshim yuqoridagi dalillarni keltirarkan, sezib turibman, nainki yuz-ko'zlarini, ayni paytda yuragini ham g'am borgan. Ayniqsa, quyidagi so'zlarni aytish unga oson bo'lmadi, ko'zida yosh aylandi.

— Safedbulonda Tojixon opa Tosh-po'latova ismli maktab direktori bor. O'sha kishi shunday deb qoldi: «Ota-onalar maktabga qo'shimcha qurilgan binoda rus tilida o'qitiladigan maktab ochishni talab qilishmoqda. O'ylab qaragam, o'zbek tilida o'qiyamiz, deb orqada qolib ketaymiz. Axir Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Buxoriy kabi dunyo taniyidigan allomalar ham o'z davrining ilg'or tili bo'lgan arab tilida ijod qilishgan-ku. Shu bois o'zbek tilidagi darsliklar yetish-masa yoki bizga bu borada birov yordam bermasa, maktablarda rus tilida o'qitish foydadan xoli bo'lmasa kerak...»

Eng e'tiborlisi (!) ushbu masalani hal qilishga B.Yelsin nomidagi Qirg'iz-Rossiya slavyan universiteti ham qo'shilgan. Maktablarni kitoblarni bilan ta'minlash hamda uslubiy jihatdan yordam uyushtirish va moliyaviy masalalar bo'yicha Rossiya maorif vazirligi bilan muzo-karalar olib borilib, ishga kirishilganiga ancha bo'ldi... Shu joyda ushbu masalaga bog'liq yana bir muammo ustida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu Qirg'izistonda o'zbek maktablarining yildan-yilga qis-qarayotganidir. Bundan besh-o'n yil oldin Respublikada 274 ta o'zbek maktabi faoliyat yuritir edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra endilikda ularning soni 43 taga tushib qolgan. Qolganlari qirg'iz-o'zbek-rus aralash sinfli maktablarga aylantirilgan.

Tasavvur qiling, bir milliondan ortiq o'zbek aholisining bolalari bugun rus tilida ta'lim olishmoqda. Yana o'n yil, yigirma-o'ttiz yildan keyin nima bo'ladi? Albatta, bu maktablarda «O'zbek adabiyoti», «O'zbek tili» o'qitiladi. Ammo bugungidek, chalakam-chatti darsliklardan ham, ulardan olinayotgan bilimlardan ham voz kechish payti kelmaydi, deb kim ayta oladi? Rus tilida o'qishga o'tgan o'zbek bolalari millatlar tarixini, adabiyotini unutib yubormaslikan? O'zbekning qadriyatlarini, urf-odatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zbekligini saqlab qola olarmikan? Nahotki, noilojning iloji shu qadar achchiq?!

Yoqubjon XO'JAMBERDIYEV

Rasmiy bo'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” va 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillariii joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, 2018-yilning 29-oktabrida Xalq ta’limi vazirligining “Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun 2019-2020-o’quv yiliga mo’ljallangan tayanch o’quv reja va takomillashtirilgan

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun 2019-2020-o’quv yiliga mo’ljallangan tayanch o’quv reja

T/r	Fan yo’nalishlari blok-modullari va o’quv predmetlari nomi	Sinflar va haftalik o’quv soatlari											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	10	12	14	14	14	12	10	10	10	9	9	124
1.1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	8	6	4	4	4	3	3	68
1.2.	O’zbek tili/rus tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
1.3.	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	29
II.	Ijtimoiy fanlar	1	1	1	1	3	3	4	5	5	4,5	4,5	33
2.1.	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
2.2.	Dunyo dinlari tarixi									1	1		2
2.3.	Davlat vahuquq asoslari								1	1	1	1	4
2.4.	Odobnoma	1	1	1	1								4
	Vatan tuyg’usi					1	1						2
	Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari							1	1	1	0,5	0,5	4
III.	Aniq fanlar	5	5	5	5	5,5	5,5	6	6	7	6	7	63
3.1.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	4	5	54
3.2.	Informatika va axborot texnologiyalari					0,5	0,5	1	1	2	2	2	9
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	1	1	1	1	2	6	8	9	9	7	8	53
4.1.	Fizika va astronomiya						2	2	2	2	2	3	13
4.2.	Kimyo							2	2	2	2	2	10
4.3.	Biologiya					1	2	2	2	2	2	2	13
4.4.	Tabiiyot vageografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	1		14
4.5.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1			2
4.6.	Tadbirkorlik asoslari										1		1
V.	Amaliy fanlar	5	5	5	5	6	6	6	4	4	3	2,5	51,5
5.1.	Musiqi madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
5.2.	Tasviriy san’at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
5.3.	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
5.4.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	1,5	1		20,5
5.5.	Chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik									1,5	1,5		3
VI.	Kasbiy ta’lim									6	6		12
VII.	Tanlov fanlari	0,5							0,5	1	0,5		2,5
	Umumiy soatlar	22,5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	36	36	37	339

o’quv dasturlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 266-sonli buyrug’i qabul qilindi. Unga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi umumiy o’rta ta’lim muassasalari uchun 2019–2020-o’quv yiliga mo’ljallangan tayanch o’quv reja hamda tushuntirish xati tasdiqlandi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari tayanch o’quv reja va tushuntirish xatida belgilangan vazifalar ijrosi 2019-2020-o’quv yili davomida umumta’lim maktablarida to’liq bajarilishini ta’minlaydi.

Mazkur buyruq qabul qilingani munosabati bilan vazirlikning 2018-yil 27-iyuldagi “Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun 2018-2019-o’quv yiliga mo’ljallangan tayanch o’quv rejani tasdiqlash to’g’risida”gi 191-son buyrug’i 2019-yil 1-iyuldan o’z kuchini yo’qotgan, deb hisoblanadi.

1. Mazkur tayanch o’quv rejasi va uning tushuntirish xati quyidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1875-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3931-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 187-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining 2017-yil 18-avgustdagi 65qq/43-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda tasdiqlangan 0341-16-son Sanitariya qoidalari va me’yorlari (SanQvaM).

2. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarining tayanch o’quv rejasi yo’nalishi va xususiyatlariga ko’ra quyidagi 7 ta blok-modullardan tashkil topgan:

filologiya fanlari; ijtimoiy-gumanitar fanlar; aniq fanlar; tabiiy va iqtisodiy fanlar; amaliy fanlar; kasbiy ta’lim; tanlov fanlari.

3. O’quv rejada “O’zbek tili/rus tili” o’quv predmeti uchun 2–4-sinflarda haftasiga 2 soat, 5-sinfdan boshlab haftasiga 3 soat ajratilgan bo’lib, ushbu o’quv predmetlari quyidagicha taqsimot asosida o’qitiladi:

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalarida “O’zbek tili” 2–4-sinflarda 2 soatdan, 5–11-sinflarda 3 soatdan o’qitiladi;

ta’lim o’zbek tilida olib boriladigan ta’lim muassasalarida “Rus tili” 2–11-sinflarda 2 soatdan o’qitiladi, 5–11-sinflarda qolgan 1 soat esa “Ona tili va adabiyoti” o’quv predmetiga qo’shib beriladi.

4. Ta’lim qoraqalpoq, qozoq, qirg’iz,

tojik va turkman tillarida olib boriladigan maktablarda “Rus tili” o’quv predmeti o’quvchilar va ularning ota-onalari xohishiga qarab 2–11-sinflarda “Ona tili va adabiyot” o’quv predmetidan 1 soat olinib, 2-sinfdan boshlab o’qitilishi mumkin.

5. “Jahon tarixi” o’quv predmeti 7–11-sinflarda haftasiga 1 soatdan;

“O’zbekiston tarixi” o’quv predmeti 7–9-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 10–11-sinflarda haftasiga 1 soatdan o’qitiladi.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganishni tashkil etish to’g’risida”gi F-1322-son Farmoyishi asosida “Konstitutsiya alifbosi” kursi 1–4-sinflarda “O’qish”, “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik”, “Odobnoma” o’quv predmetlari va “Tarbiyaviy soat”lar tarkibida;

“Konstitutsiya olamiga sayohat” kursi 5–6-sinflarda “Vatan tuyg’usi”, 7-sinfda “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” o’quv predmetlari tarkibiga singdirilib o’qitiladi.

Mazkur darslarning mazmunida O’zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni (07.01.2008-y., O’RQ-130-son), Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”, O’zbekiston Respublikasining Qonuni (08.04.2008-y. O’RQ-144-son) bilan ratifikatsiya qilingan “Bolalar mehnatining og’ir shakllarini taqiqlash va yo’q qilishga doir shoshilinch choralar to’g’risida”gi 182-Konvensiya (Jeneva, 1999-yil 17-iyun), O’zbekiston Respublikasining Qonuni (04.04.2008-y. O’RQ-140-son) bilan ratifikatsiya qilingan “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to’g’risida”gi Konvensiya (Jeneva, 1973-yil 26-iyun) haqida o’quvchilarning yoshiga mos ravishda tushunchalar berish tavsiya etiladi.

7. “Astronomiya” o’quv predmeti 11-sinfda haftasiga 1 soatdan o’qitiladi.

8. “Iqtisodiy bilim asoslari”:

O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasining 2008-yil 19-avgustdagi 145-sonli va Xalq ta’limi vazirligining 2008-yil 19-avgustdagi 224-sonli “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quvchilarning soliq va soliq to’lovlari to’g’risidagi bilimlarini oshirish to’g’risida”gi qo’shma buyrug’iga asosan “Iqtisod va soliq alifbosi” kursining o’quv materiallari 1–4-sinflarda “Ona tili”, “O’qish”, “Odobnoma”, “Matematika”, “Atrofimizdagi olam”, shuningdek, “Iqtisod va soliq saboqlari” o’quv kursi 5–7-sinflarda “Tarix”, “Matematika”, “Fizika”, “Geografiya”, “Vatan tuyg’usi” o’quv predmetlari tarkibida o’qitiladi.

9. O’quvchilarning qiziqishlari asosida ta’lim jarayonini individuallashti-

rish va tabaqalashtirish, kasbiy faoliyat yo’nalishini tanlashga maqsadli tayyorlash uchun haftasiga 8-sinfda 0,5 soat, 9-sinfda 1 soat, 10-sinfda 0,5 soat tanlov fanlari uchun ajratilgan. Ushbu soatlar doirasida o’quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda filologiya, aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar o’quv predmetlari o’qitiladi.

10. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-avgustdagi 701-sonli “Yo’l harakati xavfsizligi kuni”ni o’tkazish va yo’l-transport hodisalari profilaktikasining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq “Yo’l harakati qoidalari”:

1-sinfda tanlov fanlari uchun ajratilgan 0,5 soat evaziga jami 17 soat o’qitiladi va sinf jurnalida alohida sahifada o’tilgan mavzular qayd etib boriladi;

2–8-sinflarda “Yo’l harakati qoidalari” mashg’ulotlari tasdiqlangan dastur asosida boshlang’ich sinf o’qituvchilari va sinf rahbarlari tomonidan tarbiyaviy soatlar hisobidan 8 soatdan o’qitiladi va maktab dars jadvaliga kiritilib, sinf jurnalida “Tarbiyaviy soatlar” uchun ajratiladigan sahifada o’tilgan mavzular qayd etib boriladi.

11. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-iyuldagi 208-sonli qaroriga muvofiq “Hayot xavfsizligi asoslari” mashg’ulotlari:

1–4-sinflarda “Atrofimizdagi olam”, “Odobnoma”, “Jismoniy tarbiya” o’quv predmeti tarkibida jami 17 soat hajmda;

5–11-sinflarda “Fizika”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Geografiya”, “Vatan tuyg’usi”, “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” o’quv predmetlari tarkibida jami 17 soat hajmda o’qitiladi.

12. “Salomatlik darslari” o’quv kursi 1–4-sinflarda “O’qish”, “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik”, “Odobnoma”, “Jismoniy tarbiya” o’quv predmetlari, “Sog’lom avlod asoslari” o’quv kursi 5–9-sinflarda “Biologiya”, “Texnologiya”, “Jismoniy tarbiya” o’quv predmetlariga integratsiya qilingan holda o’qitiladi. Davra suhbatlariga mutaxassis sifatida tibbiy xodimlarni taklif etish tavsiya etiladi.

13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-oktabrdagi №06/1-669-sonli topshirig’iga muvofiq “Tejamkorlik saboqlari” o’quv-tarbiyaviy mashg’ulotlarini, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilish yo’nalishidagi mashg’ulotlarni 1–11-sinflarda 17 soatdan o’quv predmeti bo’yicha dars mavzulari zamiyida to’g’ri mashg’ulotlari, tarbiyaviy soatlar, sinfdan tashqari mashg’ulotlar, ekskursiyalarda singdirib o’tish tavsiya etiladi.

14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-iyulda tasdiqlangan “Ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo’naltirilgan bilimlarni

targ’ib qilish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar rejasi” asosida ekologik tarbiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo’naltirilgan bilimlar 1–4-sinflarda “O’qish”, “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik”, “Odobnoma” o’quv predmeti hamda “Tarbiyaviy soat”lar tarkibida, 5–11-sinflarda “Biologiya”, “Kimyo”, “Geografiya” o’quv predmetlari mazmuniga singdirib o’qitiladi.

15. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qaroriga muvofiq malakali o’qituvchilar yetarli bo’lgan taqdirda quyidagi hollarda sinfdagi o’quvchilarni ikki guruhga bo’lib o’qitishga ruxsat etiladi:

o’quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo’lgan umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 1–11-sinflarida “Chet tili” o’quv predmeti, ayrim o’quv predmetlari chuqur o’rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim muassasalari va umumiy o’rta ta’lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan o’quv predmeti, 5–11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari”, ta’lim tili o’zbek tili bo’lmagan umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 2–11-sinflarida “O’zbek tili” hamda ta’lim tili rus tili bo’lmagan umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 2–11-sinflarida “Rus tili”, 8–11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 5–9-sinflarda “Texnologiya” o’quv predmetlari ikki guruhga bo’lib o’qitiladi.

16. Ta’lim qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg’iz, turkman tillarida olib boriladigan maktablarda Pedagogik Kengashning qaroriga binoan ayrim o’quv predmetlar va kurslar o’zbek (davlat) tilida o’qitilishi mumkin.

17. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-5325-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida:

“Oila asoslari” kursi 5–6-sinfda “Vatan tuyg’usi”, 7-sinfda “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” o’quv predmetlari tarkibida;

“Oila etikasi va psixologiyasi” kursi 8–10-sinflarda “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” o’quv predmeti tarkibida singdirilib o’qitiladi.

18. Yuqorida qayd etilgan o’quv predmetlari va kurslarning o’qitilishi O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining tavsiylari asosida tegishli o’quv dasturlari va ular asosida o’qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan taqvim-mavzu rejalariga muvofiq tashkil etiladi.

19. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son Qarori

hamda 2018-yil 9-fevraldagi 11-son majlis bayoniga muvofiq, o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

o’quv yilining davomiyligi — 34 hafta (1-sinf uchun 33 hafta);

o’quv haftasining davomiyligi — 1–4-sinflarda 5 kun, 5–11-sinflarda 6 kun;

dars mashg’ulotining davomiyligi — 45 daqiqa;

dars mashg’ulotlari oralig’idagi tanaffusning davomiyligi — 5–10 daqiqa (o’quv kuni o’rtasidagi tanaffusning davomiyligi — 15–30 daqiqa).

Tegishli qonun hujjatlarida bayram (ishlanmaydigan) kuni deb belgilangan kunlarda dars mashg’ulotlari o’tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to’g’ri kelib qolgan dars mashg’ulotlarini mavzulari o’quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg’ulotlarida o’tiladi.

O’quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta’til — 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

qishki ta’til — 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta’til — 21-martdan boshlab 7 kalendar kuni;

yozgi ta’til — oxirgi bosqichli nazorat sinovi o’tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o’tkazilmaydigan sinflar uchun o’quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 2-sentabracha.

Ta’tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to’g’ri kelib qolgan taqdirda, dars mashg’ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom etiriladi.

1-sinf o’quvchilari uchun fevral oyi davomida qo’shimcha bir haftalik ta’til beriladi.

20. Mazkur tayanch o’quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o’rta ta’lim muassasasi 2019-2020-o’quv yiliga mo’ljallangan o’quv reja ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik Kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

21. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo’lgan umumiy o’rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o’rta ta’lim muassasalarining Pedagogik Kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o’quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda ma’lum bir o’quv predmetlarni chuqurlashtirib o’qitish maqsadida 15% gacha o’zgartirish kiritish huquqi beriladi.

O’quv predmetlarni chuqur o’rganish bo’yicha mualliflik o’quv dasturlaridan amaliyotda foydalanishga O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tomonidan rasmiy tasdiqlangan taqdirda ruxsat etiladi.

22. Barcha turdagi davlat umumiy o’rta ta’lim muassasalarida darslar va mashg’ulotlar mazkur o’quv reja asosida davlat tomonidan to’liq moliyalashtiriladi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim TURKMAN tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar RO'YXATI

T/r	Darslik va o'quv qo'llanma nomi	Muallifi	Tavsiya etilgan yili	Ta'minlanish holati
1-sinf				
1	Alifbe (Harplyk)	Q.Abdullayeva va b.	2019	Bepul
2	Yozuv dafolari (Harplyk depdori)	K.Xolliyev	2019	Bepul
3	Ona tili (Ene dili)	G.Abdullayeva va b.	2019	Bepul
4	O'qish kitobi (Okuv kitaby)	G.Velbegov va b.	2019	Bepul
5	Matematika	M.Ahmedov va b.	2019	Bepul
6	Matematika dafolari	M.Jumayev va b.	2019	Bepul
7	Atrofimizdagi olam	N.Mamadjanova va b.	2019	Bepul
8	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2019	Bepul
9	Tasviriy san'at	R.Hasanov	2019	Bepul
10	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Bepul
11	"Kids' English"	M.Irisqulov va b.	2019	Bepul
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Bepul
13	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2019	Bepul
14	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2019	Bepul
2-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2018	Ijara
2	Ona tili (Ene dili)	G.Abdullayeva va b.	2018	Ijara
3	O'qish kitobi (Okuv kitaby)	Sh.Abdullayeva va b.	2018	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Z.Abduraimova	2018	Ijara
5	Matematika	N.Abduraimova va b.	2018	Ijara
6	Atrofimizdagi olam	P.G'ulomov va b.	2018	Ijara
7	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2018	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2018	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2018	Ijara
10	Jismoniy tarbiya	K.Makhamjonov va b.	2018	Ijara
11	"Kids' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
12	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
13	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2018	Ijara
14	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
15	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2018	Ijara
16	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
17	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2018	Ijara
3-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Ona tili (Ene dili)	G.Abdullayeva va b.	2019	Ijara
3	O'qish kitobi (Okuv kitaby)	Sh.Abdullayeva va b.	2019	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	N.Sergeyeva va b.	2019	Ijara
5	Matematika	S.Burhonov va b.	2019	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2019	Ijara
7	Odobnoma	M.Koligova va b.	2019	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2019	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2017	Bepul
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2017	Bepul
13	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2017	Bepul
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2019	Ijara
4-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2017	Ijara
2	Ona tili (Ene dili)	A.Qodirov	2017	Ijara
3	O'qish kitobi (Okuv kitaby)	A.Qodirov va b.	2017	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Karimova va b.	2016	Ijara
5	Matematika	N.Bekboyeva va b.	2017	Ijara
6	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2017	Ijara
7	Odobnoma	M.Xoligova va b.	2017	Ijara
8	Musiqi	O.Ibrohimov	2017	Ijara
9	Jismoniy tarbiya	K.Makhamjonov va b.	2017	Ijara
10	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2017	Ijara
11	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
12	"Kids' English"	S.Xan va b.	2016	Bepul
13	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
14	"Deutsch mit Spaß"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2016	Bepul
15	"Arbeitsheft"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2019	Ijara
16	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2016	Bepul
17	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
5-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2015	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	G.Suyunova va b.	2015	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	K.Razzoqova va b.	2015	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Y.Musurmonova	2016	Ijara
5	"New Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Z.Qiyomova va b.	2017	Bepul

7	"Je parle français"	A.Nosirov va b.	2017	Bepul
8	Tarixdan hikoyalar	U.Jo'rayev va b.	2015	Ijara
9	Matematika	B.Haydarov	2015	Ijara
10	Informatika	D.Kamoliddinova	2016	Ijara
11	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kurs)	P.G'ulomov va b.	2015	Ijara
12	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2015	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Musiqi	A.Mansurov va b.	2015	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2015	Ijara
16	Tasviriy san'at	T.Qo'ziyev va b.	2015	Ijara
6-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	M.Xanmatov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	R.Qilichev va b.	2017	Ijara
4	Tarix (Qadimgi dunyo)	A.Sa'dullayev va b.	2017	Ijara
5	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	G.Gaslova va b.	2017	Ijara
6	"Teens' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
7	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2018	Ijara
8	"Voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2018	Ijara
9	Matematika	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
10	Fizika	N.Turdiyev	2017	Ijara
11	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2017	Ijara
12	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
13	Geografiya (Materiallar va okeanlar tabiiy geografiyasi)	A.Sozatov va b.	2017	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
15	Musiqi	S.Begmatov	2017	Ijara
16	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
17	Tasviriy san'at	Q.Mirahmedov va b.	2017	Ijara
7-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	M.Xanmatov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	G.Suyunova va b.	2017	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2017	Ijara
5	"Fly High English"	S.Xan va b.	2019	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2019	Ijara
7	"Bon voyage"	S.Umarova va b.	2019	Ijara
8	O'zbekiston tarixi	A.Muhammadjonov	2013	Ijara
9	Jahon tarixi	T.Salimov va b.	2017	Ijara
10	Algebra	Sh.Alimov va b.	2017	Ijara
11	Geometriya	A.A'zamov va b.	2017	Ijara
12	Fizika	P.Habibullayev va b.	2017	Ijara
13	Kimyo	I.Asqarov va b.	2017	Ijara
14	Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi)	P.G'ulomov va b.	2017	Ijara
15	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	M.Qarshiboyev va b.	2015	Ijara
16	Biologiya (Zoologiya)	O.Mavlonov	2017	Ijara
17	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
18	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
20	Musiqi	O.Ibrohimov va b.	2017	Ijara
21	Jismoniy tarbiya	T.Usumonxo'jayev va b.	2017	Kutubxona fondi
8-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova	2019	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	X.Arazqilicheva va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	R.Qilichev va b.	2019	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Rojnova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2014	Bepul
7	"Le nouveau voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2014	Bepul
8	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
9	O'zbekiston tarixi	U.Jo'rayev va b.	2019	Ijara
10	Jahon tarixi	R.Farmonov va b.	2019	Ijara
11	O'zbekiston davlati va huquqi asoslari	O.Karimova va b.	2019	Ijara
12	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
13	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
14	Geometriya	A.Rahimqoriyev	2019	Ijara
15	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
16	Kimyo	I.Asqarov va b.	2019	Ijara
17	Biologiya (Odam va uning salomatligi)	O.Mavlonov va b.	2019	Ijara
18	Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-jamoiy geografiyasi)	P.Musayev va b.	2019	Ijara
19	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	R.Qo'chqor va b.	2015	Ijara

20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	O'.Tobirov va b.	2019	Ijara
9-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	I.Arazov va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	G.Velbegov va b.	2019	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	R.Uzmanova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Deutsch"	M.Dadaxo'jayeva va b.	2014	Bepul
7	"D'un Etat a l'autre"	S.Rahmonov va b.	2014	Bepul
8	Jahon tarixi	M.Lafasov va b.	2019	Ijara
9	O'zbekiston tarixi	S.Tillaboyev va b.	2019	Ijara
10	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	G.Tamsiqboyeva va b.	2019	Ijara
11	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
12	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
13	Geometriya	B.Haydarov va b.	2019	Ijara
14	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
15	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
16	Kimyo	I.Asqarov va b.	2019	Ijara
17	Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari)	A.Zakriyoyev va b.	2019	Ijara
18	Geografiya (Jahon iqtisodiy-jamoiy geografiyasi)	A.Qayumov va b.	2019	Ijara
19	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	O.Musurmonova va b.	2015	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	Z.Sattorova va b.	2019	Ijara
10-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	G.Nazarova va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	K.Razzoqova va b.	2017	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2017	Ijara
5	"English"	F.Rashidova va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2017	Bepul
7	"France"	Z.Davronova va b.	2017	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	Q.Rajabov va b.	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2017	Ijara
10	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2017	Ijara
11	Davlat va huquq asoslari	V.Kostetskiy	2017	Ijara
12	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2017	Ijara
13	Matematika (Algebra analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2017	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2017	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2017	Ijara
16	Organik kimyo	A.Mutalibov va b.	2017	Ijara
17	Biologiya	A.G'afurov va b.	2017	Ijara
18	Geografiya (Amaliy geografiya)	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2017	Ijara
11-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2018	Ijara
2	Turkman tili (Turkmen dili)	R.Qilichev va b.	2018	Ijara
3	Adabiyot (Edebiyat)	I.Arazov va b.	2018	Ijara
4	Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slombekova va b.	2018	Ijara
5	O'zbekiston tarixi	N.Jo'rayev va b.	2018	Ijara
6	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2018	Ijara
7	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2018	Ijara
8	Davlat va huquq asoslari	N.Ismatova va b.	2018	Ijara
9	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2018	Ijara
10	Tadbiqiyot asoslari	U.G'afurov va b.	2018	Ijara
11	Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzaahmedov va b.	2018	Ijara
12	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2018	Ijara
13	Biologiya	A.G'afurov va b.	2018	Ijara
14	Astronomiya	M.Mamadaminov	2018	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2018	Ijara
16	Umumiy kimyo	S.Masharipov va b.	2018	Ijara
17	"English"	F.Rashidova va b.	2018	Ijara
18	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2018	Ijara
19	"Libre opinion"	M.Jo'rayeva va b.	2018	Ijara
20	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2018	Ijara



Jafokashim — onajonim

“Dunyoning ishlari”. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon onasini har qachongidan qattiqroq yaxshi ko'rib qolishi shubhasiz. Onam — mening mehribonim. Jonkuyar, jafokash onajonim bizdan olis yurtlarda zahmat bilan mehnat qilyapti. Dadam betob bo'lib qolgani bois onaningam ro'zg'or yukini o'z bo'yniga olishga majbur. Men va singlimning bolaligimiz, maktabdagi eng quvonchli kunlarimiz onamsiz o'tmoqda. Videoqo'ng'iroq orqali gaplashanimizda qo'ng'iroqday chiroyli ovozi so'lg'in eshitiladi. Bizdan xavotir olishini qayta-qayta ta'kidlayverishi menga biroz erish tuyuladi. Ammo har doim chet el safaridan qaytgan mehribonimning shishgan oyoqlari, qadoq bo'lgan qo'llarini ko'rib biz uchun shunchalar fidoyilik qilayotgan onamga achinaman. Shu paytda qo'llimni uqalab qo'y, oyog'imni bosib qo'y, deb men yoki singlimga zorlanganda bolaligimiz uchunmi, onamizning dardini his etmaganimiz sabab erinibgina, yoqtirmay qilgan xizmatimizni eslasam, har gal o'zimdan xafa bo'lib ketaman. Qissadagi, “Gilam paypoq” hikoyasini o'qib turib, ko'zimda yosh bilan onaning farzandi uchun chekkan jafosi beminnat va beg'araz ekanini his etaman, Kavkazdan bolasi olib kelgan birgina gilam paypoq soddagina ona uchun boshqalarga maqtanishga arzigulik tuhfa, ajib shodlik nimaligini anglaganday bo'laman. Ana shunday, onam ham biz uchun hamma narsaga tayyor, kichik bir yutug'imizdan dunyolarcha quvonishidan allanechuk suyunaman.

Onam yana bizdan olisda. Hozir yozgi ta'til bo'lgani uchun qo'shni tumandagi buvimlarni singlim bilan yashab turibmiz. Buvim bechora bizga girdikapalak, ammo onajonimizning o'rni boshqa... Ayniqsa, yoz mahali bolalarning o'z onalari bilan istirohat bog'i, xiyobonlarga chiqishlari havasimni keltiradi. Maktabda savodxonlik, muchal bayramlarida onamizning bo'lmagani singlim bilan ikkimizning bola ko'nglimizni ranjitgandi. Ayniqsa, singlimning onasiga talpingan bolalarga qarab turib, ma'yuslanganini aslo unutolmasam kerak. Dunyoning ishlari ekan, onajonim ich-ichidan mendan-da ko'proq kuyunganiga shubham yo'q. Axir olis yurtlarda biz uchun, dadamiz salomatligi uchun mehnat qilmoqda. Shularni chuqur his etib, yaxshi o'qishga, yaxshi kasb egasi bo'lishga harakat qilamiz.

So'zim so'ngida aytmoqchimanki, “Dunyoning ishlari” asarini o'qib, dunyoda oilasi, bolasi uchun har qanday zahmat, mehnatga tayyor turadigan onalar farzandiga mehrini yonida aytolmasa-da, qalbida saqlab, avaylashini tushundim. Dilbandini ko'zday asragan onalarimizni borida, yonimizdalgida qadrlaylik. Mehribonim, jonkuyarim onamni juda-juda yaxshi ko'raman. Onajon, sizni sog'inдим...

Ozodbek OLIMOV,
Romitan tumanidagi
13-maktab o'quvchisi

Onam — Hakima ayaning zamonaviy ko'rinishi

“Dunyoning ishlari” asari har doim kitob javonida o'z o'rni ega, talashib-tortishib o'qiladigan asarlar sirasiga

Kitobxonlik tanlovini boshlaganimizdan buyon Surxondaryo, Jizzax, Buxoro, Andijon, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarining turli hududlaridan kelayotgan maktablar umumiy ishtirokchilarning salmoqli qismini egallaydi. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan birga har bir asarni tahlil qilishlari, oy oxiriga yetmay fikr-mulohazalarini jo'natib, keyingi oy uchun qaysi asarni tavsiya etasiz, deb turishlari bizni juda quvontiradi. Yil so'ngida o'quvchilar bilan birgalikda faol bo'lgan o'qituvchilarni ham taqdirlashni maqsad qilganmiz.

Avyust oyida “Gulliverning sarguzashtlari”ni birgalikda boshdan kechirishni ma'qul ko'rdik.

Ona haqidagi asarlar hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Katta-yu kichik uchun bu mavzu birdek qadrlil. Hammamizning bu dunyoga keltirgan mushfiqa onamiz bor. Shu sababdan bo'lsa kerak, iyul oyida o'qib chiqqan asarimiz — “Dunyoning ishlari” bo'yicha juda ko'plab fikr-mulohazalar kelib tushdi. Agar ularning barchasini chop etadigan bo'lsa gazetamizning bir sonini asar tahliliga bag'ishlashimizga to'g'ri keladi. Ammo, afsuski, sahifalar vaqt kabi o'z chegarasiga ega. Shu sabab maktub yo'llagan ishtirokchilarimizning yozmishlari bilan sizni qisqacha tanishtirib o'tishga qaror qildik.

kiradi. Chunki bu kitob dunyodagi eng yuksak, barchamiz uchun aziz bo'lgan ONA haqida. Kitobni o'qir ekanmiz, beixtiyor Hakima ayani o'z onamizga qiyoslaymiz, o'xshash tomonlarini ko'rib quvonamiz, qo'shilib yig'ilaymiz, kulamiz. Dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, onaning farzandga bo'lgan mehri o'zgarasligini yana bir bor anglaymiz. Asarni o'qish chog'ida Hakima aya “O'g'lim, meni ham kitob qilib yozgin”, — desa dedining “Oyi, sizning nimangizni kitob qilib yozaman?” degan javobi uchun afsus chekkanini qissa tarkibidagi “Ilitji” hikoyasida his qilamiz. “Oyi, bu kitobni siz yozdingiz, men buni faqat qog'ozga tushirdim xolos!” — degan alamli so'zlaridan ko'zimizga yosh keladi. Agar men Hakima aya obrazini oyimga qiyoslasam ular egizakdek o'xshash, faqat mening onam Hakima ayaning hozirgi zamonaviy ko'rinishi. Onam menda o'qishga qiziqish uyg'otgan, har sohada do'st bo'la olgan. Men uchun o'zbek ayolining namuna qilsa arziydigan 3 ta obrazi bor. Ular: Sanobar Karimova, Hakima aya va mening onam. Har safar kitob o'qiganimda onamga kitobdan olgan taassurotlarimni so'zlab beraman. Bu safar ham shunday bo'ldi. Taassurotlarimni eshitib onam “Meni ham kitob qilib yozgin”, — dedilar. Oradan qancha vaqt o'tishini bilmadim-u, lekin Hakima ayadan qolishmaydigan onam haqida asar paydo bo'ladi.

Otaxon ANVARXONOV,
Oltin qal'asi shahridagi
19-maktab o'quvchisi

Farishtaga o'xshaysiz, ona!

Har gal O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini o'qiganimda, onam ko'z oldimga keladi. Axir yozuvchi ham bu asarni dunyodagi barcha onalarga atagan emasmi? Onalar... Olohnning biz farzandlarga yaratgan sehrli mo'jizasi? Sehrli narsalar faqat uchtagina tilakni amalga oshiradi. Onalar esa farzandining ko'p-ko'p tilaklarini amalga oshiradilar. Shuning uchun ham ular farishtaga o'xshaydilar.

Bir kuni do'kondan onamga deb ro'mol oldim. Onam sovg'amni olishlari bilan “Bolam, pulni qayerdan olding?”, dedilar. Men esa o'zim yig'gan pulimdan, dedim kulib. Shu payt onam ko'zlariga yosh oldilar. Sababini so'rasam, “Yemay-ichmay yig'gan pulingga menga sovg'a olishing shart emas, bolam, menga sog'lig'ing kerak”, dedilar kuyinib. Men shunda hamma onalar farzandiga mehribon bo'lishini tushunib yetdim. Asarda o'zbek onasi, o'zbek ayoli xarakteri juda go'zal ochib berilgan. Ayniqsa, “Tush”, “Gilam paypoq”, “Mahallaning shayxi”, “Oltin baldoq”, “Oy quyoshdan nur oladi”, “Xiyonat”, “Qanoat” kabi boblarida o'zbek onasining o'ziga xos sadoqati, muhabbati, vafo va iymon timsoli ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldim. Xususan; “Xiyonat” bobida “Qalbinning zulmat bosgan qaysidir burchagida o'z,

Termiz tumanidagi 9-maktab o'quvchisi Gulnora Xolmurodova yozganlaridan asarni qunt bilan o'qib chiqqanligini bilish qiyin emas. Gulnora o'z maktubida asardagi har bir hikoyaning mazmuni va undan olgan taassurotlari haqida batafsil mulohaza yuritgan. Gur'an tumanidagi 22-maktab o'quvchisi Diyorbek Tajimuratov esa bugun insonlarning bir-biriga mehri yetishmayotgani, o'ziga e'tibor odamni qanchalar quvontirishi haqida o'ylar to'ladi. Romitan tumanidagi 23-IDUM o'quvchisi Jasmina Rashidova “Oltin baldoq” hikoyasini o'qib “tuhmat toshi”ning naqadar og'ir ekanligini bola qalbi bilan chuqur his etgani haqida fikrlashadi. Shu maktabning yana bir o'quvchisi Feruza G'aniyeva esa asar taassurotlarini she'riy misralarda bayon etadi. Hazorasp tumani Pitnak shahridagi 9-maktab o'quvchisi Nuriya Yarasheva asardan olgan taassurotlarini Poshsha buviga (asar qahramoni) maktub tarzida yo'llaydi. Termiz shahridagi 13-maktab o'quvchisi Gulruksor Safarova esa oilaning tinch-totuv bo'lishida ayollarning o'rni naqadar muhim ekanligini anglab yetgani haqida bayon qiladi.

Ba'zi maktublarning o'zi kichik bir “Dunyoning ishlari”. E'tiboringizga shulardan ba'zilarini havola etamiz.

ammo ishonchli bir nur yilt etdi. “Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim, har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim, har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir...”

Men bu asar orqali vaqt borida onajonimning qadriga yetishni, aka-ukalarim bilan ahil-inoq bo'lishni, hayotimning har bir yo'lida onajonimga suyanishim, uni asrab-avaylashim, xizmatini qilishim kerakligini anglab yetdim. O'zbek onalarining jasorati, sadoqati, mehridan yaralgan bu qissani doimo qadrlayman.

Umidat SOBIROVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Buvijonga maktub (asarning bosh qahramoni Hakima ayaga)

Assalomu alaykum, qadrlil buvijon! Dilbandingiz, sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini o'qib qanchalar samimiy ayol, mehribon ona bo'lganligini ko'z oldimga keltirdim. Mening ham onajonim juda mehribon, og'ir-vazmin, haqiqiy o'zbek ayoli. Hamisha biz farzandlariga shirinso'z va jonkuyar. Hatto buvimning keksalik xarxashalari-yu, dadamning inijliklaridan ko'ngli og'rib ranjisa ham, bizga hech qachon yomon kayfiyatini, xafaligini sezdirmaydi. Kun bo'yi uy ishlari, kichik ukamga qarash, dala yumushlaridan horigan onajonim siz kabi biz farzandlariga erinmay turli xil qiziqarli ertak, rivoyatlar aytib beradi. Ayniqsa, jajji ukamning beshigini asta tebratib aytgan allalardan biz ham uxlab qolamiz. Onamning o'zi to'qigan allasida ham jondan aziz farzandlariga mehr-u muhabbati ufurib turadi go'yo.

Hozir ta'tilda onajonimga barcha ishlarda ko'mak beramiz. Qilgan ishimizdan mamnun bo'lalilar. Menimcha, bolasini chin dildan yaxshi ko'rgan har bir ona siz va mening onajonim kabi bo'lsa, ajabmas. Sizga maktub yozishga kirishdim-u, o'z onajonimni maqtay boshladim. Dunyoda farzandi uchun hech tinmas, bukimas qalqon, dard-g'amimizni bizdan ortiqroq tortguvchi mushfiq, jafokash inson deya e'tirof etsak, mubolag'a bo'lmas. Axir “Dunyoning ishlari” asarini o'qib turib sizning siymoyingizda ham shu xislatlarni payqash qiyin emas. Siz onalar bolangizni naqadar sevasiz, biz buning hech qachon adadiga yetolmaymiz, ammo biz ham sizni olam va osmon kengliklari qadar hamisha ardoqlab, e'zozlayveramiz va bu ulug' burch, farzandlik burchidir.

Nilufar BAXSHULLAYEVA,
Romitan tumanidagi
13-maktab o'quvchisi

Xatlamli Charos YOQUBOVA saraladi.

G'aroyib jonzotlar

Tabiatdagi har bir zarra — eng mayda o'simlikdan tortib, yirik hayvonlargacha bir-birini takrorlamaydi. Ayniqsa, mavjudotlar soni shu qadar ko'pki, ularning aksariyati haqida hatto eshitmaganmiz ham. Baliqlar, sutemizuvchilar, qushlar, qo'yingki, barcha jonzotlar orasida bizga noma'lum bo'lgan g'aroyib va kishini hayratga soluvchi ko'plab turlar mavjud.

Eng g'ayrioddiy qushlar

Yer sharida qushlarning o'n mingdan ortiq turi mavjud. Ularning aksariyati g'alati ko'rinishi bilan odamlarni o'ziga jalb qiladi. Masalan, yakkashox qushlar oilasiga mansub shoxdor abissin qarg'asi o'zining noodatiy tumshug'i bilan ajralib turadi. U Afrika hududidagi savanna va yarimsahrolarda yashaydi. O'rdaaksimonlar oilasiga mansub ko'zoynakli gaga esa Shimoliy Muz okeani qirg'oqlarida istiqomat qiladi. Narlarining patlari yorqin, makiyonlariniki esa jigarrang, biroq ikkisi ham noodatiy tumshuqqa ega.

Yangi Gvineya va unga yaqin bo'lgan hududlarda uchraydigan boshida dubulg'asi bor dubulg'asimon kazuarning bo'yi 1,7 metrga teng, oyoqlari baquvvat, biroq ucha olmaydi. Mavrak qushning nari ko'kragida g'aroyib qopcha mavjud. Uning yordamida qush ko'payish vaqtida baland ovoz chiqaradi. Mazkur qushlar oilasi Shimoliy Amerika hududlarida istiqomat qiladi. Yangi Gvineya orolida nafis patlarga ega tojkor kaparlilar bor. Ularning bo'yi 60 — 70 santimetrga teng. Bu qushlar o'simliklar mevasi va urug'lari bilan oziqlanadi.

Qizilpo'pkador turako qushi rangdor patlari bilan boshqa qanotlilardan ajralib turadi. Uning patlaridagi qizil rang shu qadar quyukki, bir donasi suvga tushgudek bo'lsa, pat dog'larida mis elementining yuqoriligi hisobiga suv bir zumda qizil rangga bo'yaladi.

O'zining ko'k rangdagi oyoqlari bilan ajralib turuvchi ko'k oyoqli olushalar Galapagos orollari va Tinch okeanining Amerika qit'asi yaqinidagi qirg'oqlarida yashaydi. Jussasi kichik bu qushchani moviy panjalaridan osongina paryash mumkin. Yana bir g'aroyib jihati, ko'pincha urg'ochi olushalar o'z juftini moviy oyoqlarida tushadigan raqslari bilan maftun etadi.

Eng g'aroyib sutemizuvchilar

Avstraliya va unga yaqin Yangi Gvineya orollarida yashovchi kirpishimon jonivor — yexidna noodatiylik borasida uncha-buncha jonzotni ortda qoldiradi. Yoqimsiz ko'rinishdagi bu hayvon sutemizuvchi bo'lishiga qaramay, tuxumdan ochib chiqadi. Tabiatan yexidnaning og'zi juda kichkina bo'lgani bois unga biror nima sololmaydi. Ammo uzun tili yordamida o'ljasini bir zumda yamlaydi. Jonivor yirik gaudasiga qaramay, uzoq masofaga ham juda yaxshi suzadi. O'tkir nigohlari esa hatto tun qorong'usida ham xavfni sezish va yoriqlar orasiga yashirinishiga yordam beradi. Bordini, yaqin orada berkinishga joy topilmasa, old oyoqlariga kuch berib, darhol yerda chuqur qazishga tushadi.

Hindiston, Xitoy, Tailand va Indo-

neziya hududlarida yashovchi Malayziya ayig'i yoki biruang ham sutemizuvchilar oilasiga kiradi. Ayiqlarning eng kamyob turi hisoblanuvchi bu hayvon tabiatan kuchli va baquvvat. Tumshug'i keng va kalta, qo'l-oyoqlari esa katta panjalariga nomutasos tarzda baland. Boshqa turdagi ayiqlardan yirik qayrilgan timoqlari va favqulodda uzun tili bilan ajralib turadi. Asli qora rangli malayziya ayig'i ning tumshuq qismi sariq-ko'kish tusda. Ko'krak qismi oq taqasimon dog'lar bilan qoplangan. Jonivor tungi hayot tarzini o'tkazib, kunduzi uyquga ketadi yoki uyasiga yaqin joyda quyosh nurida toblanadi.

Itlar orasida ham g'aroyib turlar uchraydi. Komondor laqabli venger ovcharkasi shular jumlasidan. Tanasi qalin jun bilan qoplangan, uzunligi bir metrgacha boradigan bu it bir qarashda to'rt oyoqli gigant shvabrani eslatadi. Shnur kabi o'rash mumkin bo'lgan oq uzun yunglari komondorni anchayin salobatli ko'rsatadi. Ammo bu qalin va chigal yunglarni tarashning sira imkoniyati yo'q.

Yer ostida yashaydigan yulduzburun krot haqida eshitganmisiz? Jonivorning nomi g'aroyib-u, ammo ko'rinishi juda yoqimsiz. Ushbu hashoraxo'r hayvon sutemizuvchilar oilasiga mansub. Uni faqat AQShning shimoli-sharqiy hamda Kanadaning janubi-sharqiy qismlarida uchratish mumkin. Tashqi ko'rinishi boshqa turdagi krotlardan keskin farq qiladi. Faqat undagina yulduzchani eslatuvchi tumshuq bor. Bu tumshuq 22 ta yumshoq harakatlanuvchi etdan iborat. Jonivor o'ziga ovqat qidira boshlaganida tumshug'idagi etlarning o'rta va yuqori qismlardan boshqa barchasi harakatlanadi. Yegulikni yutayotganda esa etlar birgalikda ichkariga tortiladi.

Momiqqina, oppoq yungli Angor quyonining ko'rinishi ham kishida o'zgacha taassurot qoldiradi. Kemiruvchi uzunligi 80 santimetrgacha boradigan qimmatbaho yungi bilan ajralib turadi. U kishini tinchlantirish xususiyatiga ega. Shuningdek, ushbu quyon yungidan ko'plab foydali narsalar — matodan tortib choysablarga tayyorlashda foydalaniladi. Bitta quyondan yiliga 0,5 kilogramgacha yung olish mumkin. Angor quyonlari orasida urg'ochilari ko'p uchraydi. Kemiruvchining uzunligi 61 sm, og'irligi 5 kg.gacha boradi. Uning paxmoq yunglari haftada bir marotaba tarab turilmasa, qo'rqinchli ko'rinishga boshlaydi.

Pandalar ko'pchilikning yoqimto'y jonivori hisoblanadi. Xitoy, Butan, shimoli-sharqiy Hindiston, shimoliy Birma va Nepalda yashovchi rangdor panda ham tezda kishilar e'tiborini tortadi. Yenotlar oilasiga kiruvchi bu hayvonni dengiz sathidan 2000 — 4000 metr balandlikdagi bambukli o'rmonlarda uchratish mumkin.

Unga rangdor panda nomi berilishi bejiz emas. Boisi uning tanasida turli ranglarni uchratish mumkin. Jonivor yungining yuqori qismi malla, pastki qismi qora yoki qizg'ish-jigarrang tusda bo'lsa, orqasidagi tuklari sariq, dumi malla, panjalari qora, boshi oqish, tumshug'i va quloqlari esa oq rangda. Bu turdagi pandalar tunda faol bo'lib, kunduzi kovak ichiga kirib olib uxlashni xush ko'radi.

Sayyoramizda Dangasa nomli hayvon bor, desak ajablanmang. Chindan, janubiy va markaziy Amerikada shunday sutemizuvchi yashaydi. U deyarli hamma vaqt daraxtda o'tiradi — sutkada 15 soatni uxlash bilan o'tkazadi. Fiziologiyasi quvvatni tejashga moslashgan bo'lib, uning qorni to'yishi uchun bir dona barg yetarli. Tishlari to'liq bo'lmasa-da, tabiat uni uzun bo'yin bilan siylagan. Shu bois daraxt shoxlaridagi barglarni osonlik bilan, ortiqcha harakatsiz uzib yeydi. Dangasa deyarli joyidan qimirlamaydi, faqat bir haftada bir marta biror ehtiyoj uchun daraxtdan pastga tushishi mumkin. Bu turdagi hayvonlar kamdan kam hollardagina to'da bo'lib bir yerga to'planadi.

Amazonka daryosi atroflaridagi yomg'irli o'rmonlarda yashovchi Imperator tamarin maymuni boshqa turdagi maymunlardan qattiq dumi, yelkasigacha tushadigan oq uzun quloqlari bilan ajralib turadi. Ular guruh bo'lib daraxtlarda yashaydi. Bu turdagi maymunlar orasida qat'iy qoidalar mavjud. Oilada har bir a'zoning o'z o'rni bo'lib, kichiklar kattalarga bo'ysunadi. Urg'ochilarning eng kattasi eng baland martabaga ega. Ular bolalar parvarishi bilan shug'ullanmaydi. Yosh maymunlar asosiy vaqtini jamoadagi boshqa urg'ochi maymunlar bilan o'tkazadi.

Janubiy Amerikadagi qalin o'rmonlarda maymunlarning yana bir g'aroyib turi — oq yuzli saklar yashaydi. Ular yengil harakatlari, tanasidagi to'q yungi hamda sariq rangi yaxshi eslab qolish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu jonivorlar Janubiy Amerikadagi boshqa maymunlardan farqli, uzun va yungli dumlaridan daraxt shoxlariga tirmashib chiqishda emas, balki shoxma-shox sakrayotganda muvozanatni saqlashda foydalanadi.

O'txo'r, bir tuyuqli tapir hayvoni Janubiy va Markaziy Amerika, Janubi-sharqiy Osiyodagi issiq hududlarda yashovchi qisqa xartumli sutemizuvchilar qatoriga kiradi. Yangi tug'ilgan tapir bolasining ko'rinishi chumolixo'r hayvon bilan yovvoyi to'ng'iz chatishmasini eslatadi. Katta bo'lganidan keyin ham ko'rinishidan chumolixo'r va pandaning birikishidan hosil bo'lgandek taassurot uyg'otadi. Bu jonivorning orqa oyoqlari uch, old oyoqlari esa to'rt barmoqli bo'ladi. Barmoqlaridagi kichik tuyuqchasi uning loyli va yumshoq yerlarda ham osongina yurishiga yordam beradi. Tapirlar ulg'aygani sari tanasidagi yo'l-yo'l chiziqli va xollari yo'qolib boradi. Ular tabiatan insonlardan qo'rqadi va ikki oyoqlarni ko'rishi bilan ortiga qaramay qochadi.

Noodatiy baliqlar

Akvarium baliqlari orasida eng mashhur va g'aroyibi baliq — kloun bo'lib, ularning urg'ochisi o'z jinsini o'zgartirish xususiyatiga ega. Bunday baliqlar to'dasida hukmronlik juda kuchli bo'lib, to'dani tanlab olingan juftlik boshqaradi. Oilaning qolgan a'zolari esa ularga bo'ysunadi. Bordini, urg'ochi yo'l boshchi vafot etsa, uning sherigi o'z jinsini o'zgartiradi va urg'ochi rahbarga aylanadi.

Baliq-timsah yoki ilmiy tilda aytganda olachipor yassibosh baliqning tashqi ko'rinishi yashil yirtqich — timsahning o'zginasi. Uning o'zi ham suv ostidagi yashil yirtqich hisoblanadi. Ko'pincha tusini o'zgartirish xususiyatidan foydalanadi. Kunning yorug'ligiga qarab rangini kulrang yoki yashilga o'zgartiradi.

Okean tubida yashovchi qilich baliq ko'rqinchli ko'rinishi bilan "odamxo'r baliq" nomini ham olgan. Uning uzun qilichlari uchun miyasining ikki tomonida qinlar mavjud. Ular xuddi mixga o'xshaydi va o'z qurboniga oddiy tishlardan bir necha marta tezroq sanchiladi. Qizig'i, katta va yosh baliqlar bir-biridan keskin farq qiladi. Ularda tadqiqot o'tkazgan olimlar oradan 15 yil o'tibgina yosh va katta baliq bir turga mansubligini tushunib yetgan.

Dengizlarning 400 metr chuqurlik va o'rtacha kengliklarida yashovchi jag'siz jonivor — miksin ham g'aroyibligi bilan ajralib turadi. Noodatiy ko'rinishdagi ushbu jonivorning ikkinchi nomi — baliq-jodugar. Uning hayotini ta'minlashda sho'r suv muhim o'rin tutadi. Agar suv tarkibidagi tuz miqdori 29 foizgacha tushib ketsa, miksinlar ovqatlanishni to'xtatadi. Bordini, 25 foiz va undan tushib ketsa, baliq yashay olmay jon beradi. Aslida, miksinlar suvdagi erimagan tuz bilan oziqlanadi. Uning tanasi shilimshiq yopishqoq modda ishlab chiqaradi va shu xususiyati tufayli baliq-jodugar hech bir qiyinchiliksiz o'lik baliqlar tanasini yutib yuboradi. Shilimshiq baliqni suv osti dunyosida kasallanish va jarohatlardan qo'riqlagani bois u hatto o'laksalardan ham hazar qilmaydi. Shunga qaramay, ayrim mamlatlarda miksinlar taom sifatida iste'mol qilinadi.

Yaproqli dengiz ajdahosi ham baliq turining nomi. U Janubiy Avstraliyaning rasmiy ramzi va belgisi hisoblanadi. O'zi esa Avstraliyaning janubiy va g'arbiy dengizlarida yashovchi dengiz otlariga qarindosh. Baliqning bargga o'xshash tanasi va boshi uning sayozlikda yashirinishiga xizmat qiladi. Suvo'tlarga o'xshash bu g'aroyib baliq o'z ko'rinishi bilan yirtqichlarni chalg'itadi. Ular barg ko'rinishidagi baliqqa hatto hujum qilishga ham urinmaydi. Dengiz ajdahosi suvda bo'yin qismida joylashgan va deyarli ko'rinmaydigan ko'krak suzgichlari yordamida suzadi. Baliqning dum qismida ham rangsiz orqa suzgichlari bor.

Yuqoridagi jonzotlar qanchalik g'ayritabiyy bo'lmasin, har biri o'ziga xosligi bilan kishilarni hayratga soladi. Zero, ular Olloh barcha tirik mavjudotni takrorlanmas qilib yaratganining yorqin misolidir. Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Alimova Guzal Alisherovnaning 08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot va 08.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti tutashtirish xizmatlari bo'yicha "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda rekreatsiya-turistik salohiyatidan samarali foydalanish (Toshkent viloyati misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.1.01.11 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Iqtisodiyot fakulteti, 4-qavat, 404-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Allayarov Otabek Erkinovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston barqaror taraqqiyotini ta'minlashda internet texnologiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Jo'rabekova Habiba Madaminovnaning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda davlat boshqaruvi nomarkazlashtirish jarayoni (Xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy tahlili)" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Jalalov Ravshanbek Maxmudxonovichning 01.04.10 — Yarimo'tkazgichlar fizikasi ixtisosligi bo'yicha "Gidrogenizatsiyalangan amorf kremniyning spektral xarakteristikalarining shakllanish xususiyatlari" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.30.08.2018. FM/T.01.12 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-avgust kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100057, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy,
O'ZMU qoshidagi YFM ITI majlislar zali.
Tel/faks: (71) 248-79-94, 248-79-92; e-mail: info@ispm.uz

Kurbonova Gulsara Sodikovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26.04.2018.Fil.01.10 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing bosh o'quv binosi, 1-qavat, 108-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Qalandarov Aziz Abdugayumovichning 05.01.07 — Matematik modellashtrish. Sonli usullar va dasturlar majmuyi ixtisosligi bo'yicha "Izotrop va anizotrop jismlar uchun termoelektrik masalalarni sonli modellashtrish" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.FM.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

Mahkamov Qodirjon Odiljonovichning 22.00.03 — Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda o'quvchilar tarixiy ongining yangilanishi va rivojlanishi (sotsiologik tahlil)" mavzusidagi (sotsiologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.12.2018.S.23.02 raqamli ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, ma'muriy bino, 2-qavat, 220-xona.
Tel/faks: (71) 232-60-47, 239-17-83; e-mail: info@dba.uz

Salayeva Muhabbat Saburovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

Jo'rayev Xusniddin Olinboyevichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha "Integratsiyalashgan mediata'lim tizimini yaratishda muqobil energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

Abduxairov Ravshan Ashuraliyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik madaniyatni uzluksiz rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

Sultanova Aydin Menlibayevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili) ixtisosligi bo'yicha "5-7-sinf o'zbek tili darolarida grammatik materiallarni o'rganish metodikasi (ta'lim qoraqalpog' tilida olib boriladigan maktablar misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

Tosheva Nurzoda Toshmirovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishning didaktik shart-sharoitlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (61) 223-60-47, 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

Ravshanov Lochinbek Urinovichning 19.00.01 — Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy harbiy xizmatchi imijining psixologik jihatlari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Psi.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 30-avgust kuni soat 12:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Rustamov Ilxom Tursunovichning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Kichik janr matnlarning pragmatik kognitiv va milliy madaniy mohiyati (o'zbek va ingliz tilidagi latifalari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 13:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Xalimova Firuza Rustamovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Poetik matnning lingvofonetik xususiyatlari va tarjimonning pragmatik muammolari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 11:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Mustayeva Guldora Salaxiddinovnaning 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Nutq muhitida shakllanuvchi fransuz tili obrazli o'xshatishlarining semantik-kognitiv mexanizmlari (homme, femme, enfant olari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-sentabr kuni soat 9:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Djumaniyazova Dilfuza Kamolovnaning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi ixtisosligi bo'yicha "Shaxs ma'naviyatining shakllanishida insoniylik va ilohiylik uyg'unligi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Jo'rayev Sherzod Sultanbayevichning 11.00.02 — Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston sanoati rivojlanishining hududiy xususiyatlari" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.G.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 11:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'ZMUNing Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: ikgeografiya.nuu@mail.uz

14 O'qituvchiga qattiq mehr qo'ygan-u, ammo sizning "sevimlilaringiz" kabi sizga suykalmaydigan qorako'zni unutishga haqqingiz yo'q.

Elda aziz

Bolajon muallima

Xalqimiz orasida shunday insonlar borki, aksariyatimiz hatto o'z farzandimizga kerakli bo'lgan vaqtni ajratolmayotgan bir vaqtda, ular ko'plarning bolasi haqida o'ylaydi. Ening farzandi bilan uzzukun birga bo'ladi. Uning kelajagi, ta'lim-tarbiyasiga hayotini bag'ishlaydi.

— Biz o'qituvchilar o'zimizga juda talabchan bo'lishimiz kerak, — deydi ana shunday insonlardan biri Shahlo Xolmirzayeva. — Chunki yosh avlodni tarbiyalaymiz. Muomala, kiyinish, yurish-turishda haqiqiy ustoz maqomiga loyiq bo'lishga intilishimiz lozim. Otam O'rol Xolmirzayev xuddi shunday, barchaga namuna bo'ladigan pedagog edi. O'qituvchilikka havas otamni kuzatib turib uyg'ongan. Men uchun kasbimning muqaddasligi — uning otamerosligida ham.

Sh.Xolmirzayeva o'qituvchi oilasida tug'ildi. Ota-onasining maktab hayoti, o'quvchilar masalalari bilan bog'liq suhbatlari uni ilhomlantirardi. Bunday muhit unda ham o'qituvchi bo'lish orzusini shakllantirdi. Oliy o'quv yurtini bitirib, o'zi tahsil olgan Pastdarg'om tumanidagi 29-maktabda ish boshladi. Hozirga qadar minglab o'quvchilarga boshlang'ich ta'lim sabog'ini berib kelmoqda.

Sh.Xolmirzayevaning o'z o'qitish uslubi bor. Boshlang'ich ta'limda avvalo bolaning ko'ngliga yo'l topa olish kerak, deb hisoblaydi.

Ana shunda jajji qalblarda maktabga, ilm olishga bo'lgan qiziqish shakllanadi. O'qituvchiga bo'lgan hurmat oshadi. Bu natijalarga erishgan o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch ortadi va u darslarda faol qatnasha boshlaydi.

— Hech bir bola o'qituvchini e'tiboridan, mehridan bebahra qolishi kerak emas, — deydi qahramonimiz. — O'qituvchi buni doim yodda saqlashi kerak. Qaysidir o'quvchiga ko'proq mehr qo'yilishi boshqa o'quvchilarning faolligini cheklaydi. Sinfxonaning o'sha orqa partasida kimga, o'zini namoyish etolmaydigan, o'qituvchiga qattiq mehr qo'ygan-u ammo sizning "sevimlilaringiz" kabi sizga suykalmaydigan qorako'zni unutishga haqqingiz yo'q. U "ustoz meni unchalik yoqtirmaydi" deb o'ylamasligi kerak. Shunday o'yladimi, tamom. Maktabga mehr qo'ymaydi, darslarni xushlamay qo'yadi.

Darhaqiqat, Shahlo Xolmirzayeva asli bolajon. U uchun hech bir bola begona emas. Shu bois o'g'il-qizlar ko'ngliga oson yo'l topadi.

Rustam MANNOPOV

Fanimiz fidoyilari

Mashaqqatli izlanish mevasi

Ilm-fan borasida yuksak natijalarga erishayotgan zamondoshlarimiz ko'plab topiladi. Ana shundaylardan biri falsafa fanlari doktori, professor Jumaniyoz Ramatovdir. U 1956-yil 10-avgustda Urganch tumanida tavallud topgan. 1980-yili Toshkent davlat universiteti(hozirgi O'zMU)ning "Falsafa-iqtisod" fakultetini, 1986-yili Toshkent davlat pedagogika instituti aspiranturasini tamomladi. "Ilmiy bilish strukturasida gipoteza" mavzusida nomzodlik, "Sotsial bilishda gipoteza va prognoz" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlab, 37 yoshida fan doktori ilmiy darajasiga erishdi.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida assistentlikdan ish boshlagan J.Ramatov 2001-yili O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. 2010-yil sentabridan Toshkent temir yo'l muhandislari instituti "Falsafa va siyosatshunoslik" kafedrasida professori vazifasini bajaruvchi, 2011-yil sentabridan "Falsafa va siyosatshunoslik" hozirgi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida mudiri lavozimida mehnat qilmoqda.

J.Ramatov O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim a'lochisi. Shuningdek, 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar muallifidir. Ham-mualliflikda tayyorlangan "Falsafa asoslari", "Ma'naviyat asoslari" darsliklari oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan darsliklar bo'yicha o'tkazilgan Respublika tanlovida 1- va 3-o'rinlarga sazovor bo'lgan. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i asosida tashkil qilingan ishchi guruh a'zosi sifatida "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha oliy ta'lim,

o'rta maxsus ta'lim uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy ko'rsatmalar yaratishda faol ishtirok etdi.

Haqiqiy olimlikning muhim mezonlari bor. Shulardan biri bilimni boshqalarga yetkazish va o'ziga munosib shogirdlar tayyorlashdir. J.Ramatovning 2 nafar shogirdi uning ilmiy rahbarligida falsafa fanlari nomzodi bo'ldi. Ayni kunlarda dom-laning yana bir shogirdi R.Baratov falsafa yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyasi arafasida.

Ustozning sa'y-harakati tufayli Toshkent temir yo'l muhandislari institutining "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida qo'shida falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish bo'yicha kunduzgi doktorantura tashkil etildi. Ushbu ilmiy maktabning ilk qaldir'ochlaridan biri bo'lgan Habibullo Rajabov siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

Bahriddin SALIMOV,
falsafa fanlari nomzodi

Xotira

Qoraxat ro'yxatiga kiritilgan xaloskor

Xarkov shahri yaqinidagi Polevoye qishlog'ida bir baland tepalik bor. Tepalikda mazkur qishloqni fashist gazandalaridan qaytarib olishda qahramonlik ko'rsatgan xaloskor jangchilar sharafiga xotira yodgorligi o'rnatilgan. Yodgorlikdagi ro'yxatda 111 marhum jangchining nomi zarb etilgan. Qurbonlar ro'yxatida 84-raqam bilan kattaqo'rg'onlik Samad Muqimovning ham ismi bor.

Vaholanki, bu yodgorlik urushdan so'ng, ya'ni tinch qurilish yillarida o'rnatilgan. O'sha yillari esa hamyurtimiz Samad Muqimov tirik edi...

Samad Muqimov 1933-yili Toshkentdagi pedagogika texnikumini bitirgach, Kattaqo'rg'on shahri maktablarining birida boshlang'ich sinflarda o'qituvchilik qilardi.

Fashist Germaniyasining xuruji boshlangan yili Samadjon aka ham ko'plab do'stlari safida hayot-mamot urushiga otlandi. U Xarkovdagi bilim yurtida qisqa muddat harbiy tayyorgarlikdan o'tib, Stalingrad mudofaasiga jo'natildi.

1943-yilning 15—22-avgust kunlari Xarkov viloyatining Polevoye qishlog'idagi "201-7" tepalik uchun janglar borardi. 299-o'qchi diviziyaning bir necha polki, jumladan, 53-gvardiyachi armiya jangchilari oldiga qo'mondonlik tomonidan ana shu tepalikni ishg'ol etish vazifasi topshirilgan edi. Bilagida

kuchi, qalbida g'ururi bo'lgan tojik yigiti Samad Muqimov ushbu tepalik uchun bo'lgan jangda dushman-ni o'nga yaqin tanklarini safdan chiqarishda mardlik, shijoat ko'rsatgani Qo'mondonlik tomonidan e'tirof etildi.

Polevoye qishlog'i va "201-7" tepaligi 1943-yil 22-avgustda gazandalardan batamom tozalandi. Jangning so'nggi kuni Samad Muqimov og'ir yaralandi. Uni deyarli jonsiz holatda gospitalga keltirishdi. Hatto, uning sog'ayishidan umid uzilib, oilasiga "qora xat" ham yo'llandi.

Lekin xaloskor jangchi tirik edi. U bir necha oy davolangach, yana jangga kirdi. O'zining sog'u salomat ekani haqida uyiga xat ham jo'natdi. U jangchilarimiz safida Volga, Elba daryolaridan o'tdi, fashistlarni Pragagacha "quvish"da shijoat ko'rsatdi. Janglardagi mardligi uchun Oliy Bosh qo'mondonlikning 2 marta tashakkurnomasi, "Jasorati uchun", "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" nishonlari bilan taqdirlandi. "201-7" tepaligini ishg'ol etishdagi jasorati uchun esa Samad Muqi-

Jangning so'nggi kuni Samad Muqimov og'ir yaralandi. Uni deyarli jonsiz holatda gospitalga keltirishdi. Hatto, uning sog'ayishidan umid uzilib, oilasiga "qora xat" ham yo'llandi.

mov 1944-yilning avgust oyida 3-darajali "Shuhrat" ordeniga sazovor bo'ldi. Orden urushdan bir yil o'tgach, o'z egasini topdi.

Samad Muqimov tinch qurilish yillarida ham ezigulik yo'lida samarali mehnat qildi. Uzoq yillar xalq nazorati organlarida, xalq ta'limi sohasida ishladi. Qishloq xo'jaligi va tayyorlov xodimlari kasaba uyushmalari qo'mitasiga raislik qildi.

Urushdagi beomon, hayot-mamot janglarida olgan jarohatlar ta'siri, o'qlar yarasi o'z asoratini qoldirgan edi. Samad aka Muqimov 1979-yili 66 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Samad akaning ushalmay qolgan orzularini qobil, mehnatkash, o'qimishli farzandlari ro'yobga chiqarishdi. Ha, farzandlar ota ishonchini oqlashdi.

Ayni kunda Samad Muqimovning to'ng'ich farzandi Rustam Muqimov — me'morchilik ilmi bo'yicha fan doktori, Dushanbe texnika dorilfununi professori, Ra'no — Samarqand davlat dorilfununi laboratoriyasi xodimi, Solijon — oliy ma'lumotli san'atkor, Abdulhamid Majidiy nomli Kattaqo'rg'on shahar o'zbek davlat drama teatri va shahar 1-madaniyat uyining direktori vazifalarida faoliyat ko'rsatib, endilikda nuroniy sifatida jamoat ishlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Samad Muqimovning el-yurt oldidagi xizmatlari inobatga olinib nomi adabiy lashtirilsa ayni muddao bo'lur edi.

G'ayrat SHUKUROV,
faxriy jurnalist

YERDAGI ILK DARAXT TANASI TOPILDI

Paleontologlar Xitoyning sharqiy qismidan devon davri-ga oid katta va qadimiy o'rmonni topdi. Yerdagi ilk daraxtlar o'sgani aytilayotgan ushbu o'rmonning uzoq vaqt davomida harakatsiz qotib qolgani barchani hayratga soldi, deyiladi "Current Biology" jurnalida chop etilgan maqolada.

Van va uning jamoasi o'rmonni Shanxay g'arbidan 200 km uzoqlikda joylashgan Sinxan shahrida olib borgan qazishma ishlari jarayonida aniqladi. 30 ta futbol maydoniga teng hududdagi o'rmon juda yaxshi saqlangani bilan olimlar e'tiborini tortdi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, sayyoramizdagi ilk daraxtlar devon davrining o'rtalarida, taxminan 400 million yil oldin paydo bo'lgan. Daraxtlarning o'sishi Yerdagi holatni keskin o'zgartirib, tabiatning yashillikka burkanib, jonli mavjudotlarning ko'payishiga sabab bo'lgan.



Ilk daraxtning ko'rinishi hozircha olimlar uchun jum-bog'ligicha qolmoqda. Ammo kamdan kam uchraydigan qotib qolgan o'rmon muta-xassislariga ilk daraxt ildizi, barglaridagi izlarni o'rganish imkonini berdi. Shundan so'ng olimlar ilk daraxtlar zamonaviy plaun (sporal) o'rmon o'simliklaridan biri) o'simligi va "Stigmara" turi-ga kiruvchi qadimiy o'simliklarga o'xshaydi, degan xulosaga keldi. Ammo tadqiqotchilarning aytishicha, o'rmondagi daraxtlarning ko'pchiligi boshqa o'simliklardan ko'ra ko'proq palmaga o'xshab ketardi. Ularning shoxlari yo'q, yuqori qismi esa barg uyumi bilan qoplangan. Daraxtlarning balandligi 3 metrdan oshmagan.

Ilk daraxtning ko'rinishi hozircha olimlar uchun jum-bog'ligicha qolmoqda. Ammo kamdan kam uchraydigan qotib qolgan o'rmon muta-xassislariga ilk daraxt ildizi, barglaridagi izlarni o'rganish imkonini berdi. Shundan so'ng olimlar ilk daraxtlar zamonaviy plaun (sporal) o'rmon o'simliklaridan biri) o'simligi va "Stigmara" turi-ga kiruvchi qadimiy o'simliklarga o'xshaydi, degan xulosaga keldi. Ammo tadqiqotchilarning aytishicha, o'rmondagi daraxtlarning ko'pchiligi boshqa o'simliklardan ko'ra ko'proq palmaga o'xshab ketardi. Ularning shoxlari yo'q, yuqori qismi esa barg uyumi bilan qoplangan. Daraxtlarning balandligi 3 metrdan oshmagan.



O'rmon bo'yab tekshiruv olib borgan tadqiqotchilar bu yerdan yana o'nlab daraxt tanalarini topdi. Ular orasi-da singanlari ham bor edi. Hozir "qotib qolgan" o'rmon va undagi o'simliklar ustida tekshiruv ishlari davom etmoqda.

"ASALARILAR QOTILI" O'RNIGA YANGI BAKTERIYA YARATILDI

Rossiyadagi Kurchatov instituti qoshidagi Milliy tadqiqot markazi mutaxassislari qishloq xo'jaligida zarar-kunandalar va o'simliklardagi kasalliklarga qarshi foydalaniladigan pestitsid kimyoviy vositasi o'rnini bosuvchi yangi bakteriya uchun patent oldi. Bu haqda institut matbuot xizmati xabar qildi.



Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jahonda har yili pestitsiddan 500 mingdan 1 milliongacha zaharlanish holati qayd etilmoqda. Xususan, Rossiyaning turli hududlarida shu yilgi yozning o'zida qishloq xo'jaligida pestitsidlarni nazoratsiz qo'llash oqibatida asalarilarning ommaviy nobud bo'lishi kuzatilgan.

Dunyo olimlari muammoni bartaraf etish uchun pestitsidning o'rini bosuvchi boshqa kimyoviy vositani izlayotgan bir paytda, rossiyalik mutaxassislar amaliyotda "Brevibacillus laterosporus" bakteriyasi asosida yaratilgan biologik pestitsidni qo'llay boshladi.

Yangi bakteriya bir qator afzalliklarga ega bo'lib, arzon ozuqa muhitida o'sadi, uni qo'llash uchun maxsus sharoit talab etilmaydi, laboratoriya sharoitida uzoq vaqtgacha o'z xususiyatlarini yo'qotmasdan saqlanadi, shuningdek, hayvonlar uchun zararli emas.

Olimlar pestitsid o'rnini bosuvchi yangi bakteriya amaliyotda faol qo'llanilishi va samarali natija berishiga ishonmoqda.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Hamyurtimiz jahon chempionatining bronza medali sohibi

Estoniyaning Tallinn shahrida sport kurashlari bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tmoqda.

Erkin kurash bo'yicha vazni 97 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar bahsida hamyurtimiz Maqsud Veysalov terma jamoamizga dastlabki medalni tuhfa etdi.

Sportchimiz 3-o'rin uchun kechgan bellashuvda hindistonlik Akash Antiga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Ma'lumot o'rinda, Maqsud Veysalov 1999-yil 23-yanvarda Sirdaryo tumani Baxt shahrida tavallud topgan, hozirda Guliston davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi.

Tailand ochiq chempionatida 9 ta medal qo'lga kiritildi

Joriy yilning 9—12-avgust kunlari Tailandning Pattaya shahrida bo'lib o'tgan "Jiu-jitsu Tailand Gran-pri" ochiq chempionatida O'zbekiston terma jamoasi 8 nafar sportchi bilan munosib ishtirok etdi va 9 ta (2 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza) medalga sazovor bo'ldi.

Shu jumladan, jamoa tarkibidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti harbiy xizmatchilari 3 ta medal (K.Usmonov — 1 ta oltin, 1 ta bronza; I.Hasanov — 1 ta kumush)ni qo'lga kiritdilar.

Aytib o'tish joizki, ushbu xalqaro musobaqada o'z mahoratini namoyish etgan 40 dan ortiq davlatlarning jamoalari orasida terma jamoamiz 7-o'rinni egalladi.

Sportchilarimiz I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida yaqinlari va oila a'zolari ishtirokida harbiy orkestr sadolari ostida kutib olingani milliy terma jamoa a'zolari hamda aeroport hududida bo'lib turgan poytaxtimiz mehmonlarining kayfiyatiga yanada yuqori kayfiyat ulashdi.

Nafosat ZAFAROVA,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
matbuot xizmati yetakchi mutaxassisi

Musayev Abdurkarim Sulaymanovichning 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Rus tili izohli lug'atlarida fe'l frazeologizmlarining grammatik ishlarnasi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Kadirov Mirsulton Batirovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning obyekti va subyekti omillari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Djambekova Gulnara Suleymonovnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Respirator allergiya profilini molekulyar sistematsiyalash va multipleks analizi asosida O'zbekiston aholisining sensibilizatsiya pasportini ishlab chiqish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Maxkamov Ulug'bek Abdugapparovichning 09.00.01 — Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Dialog — ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishning metodologik omili" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy,
O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Djabbarov Ibroxim Shodmonovichning 03.00.09 — Umumiy genetika. 03.00.07 — O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosliklari bo'yicha "O'zbekiston janubi-g'arbiy mintaqasidan qadimiy mahalliy bahorgi yumshoq bug'doyning nav namunalarining genetik va fiziologik xilma-xilligi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.


Manzil: 101226, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-23-90; e-mail: igebr_anruz@mail.ru

Shamsiddinova Alfiya Sayfiddinovnaning 14.00.06 — Kardiologiya ixtisosligi bo'yicha "O'tkir koronar sindromli bemorlarda katekolaminlar metabolizmining buzilishi va birlamchi mediatorlar yallig'lanishining o'zaro bog'liqligi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26.04.2018.Tib.64.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 234-16-47; e-mail: info@cardiocenter.ru

"Shodon vitaminchalar"

Shu kunlarda yurtimizning har bir go'shasida Mustaqillik bayrami shukuhi kezib yuribdi. Qay manzilga bormang, shu kayfiyatini his qilasiz. Yakkabog' tumanidagi ta'lim muassasalari ham bayram oldidan o'zgacha qiyofa kasb etdi.



— Ta'lim muassasamiz bir necha oy ilgari "Obod qishloq" davlat dasturi asosida kapital rekonstruksiya qilindi, — deydi Yakkabog' tumanidagi 15-maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasi Dilbar Musayeva. — Oldin bog'chamiz atigi 75 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, binosi achinarli holatga kelgan edi. Sharoitlarimiz og'irligidan qiynalardik. Bog'chada ta'mirlash ishlari olib borilgach, tamoman boshqa ko'rinishga keldi, barcha qulayliklarga ega obod maskanga aylandi. Albatta, bundan birinchi navbatda ota-onalar juda mamnun, bolalarning quvonchi cheksiz. Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorligimizni bildiramiz. Hozir 4 ta asosiy guruh va 2 ta qisqa guruhlarda jami 150 nafar bola tarbiyalanmoqda, 7 nafar tarbiyachi bolalarga ta'lim-tarbi-

ya beradi. Bundan tashqari ingliz, rus tili va jismoniy tarbiyadan o'qituvchilar davlat tomonidan ish haqi olib, ishlab karmoqda.

Yorug', shinam xonalardan bolajonlarning sho'x-shodon kulgisi eshitiladi. Bo'y-bastiga mos bo'lgan jajji stulchalarda o'tirib olgan bolalar bir-biri bilan tortishib turli rasmlar chizmoqda, o'yinchoqlar yasamoqda. Ular uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, bola bo'lib qolgisi keladi kishining. Qolaversa, raqs, shaxmat-shashka, ingliz tili, rus tili to'garaklari ham bolalar ixtiyorida.

Tayyorlov guruhida tarbiyachi Maqsuda Daminova bolalar bilan qurish-yasash mashg'ulotlarini olib bormoqda. Unda bolajonlar lego, plastilin, qogo'z va boshqa mahsulotlardan




foydalanib, turli narsalar yasashadi. Bu mashg'ulot bolalarning dunyoqarashini o'stiradi. Katta guruh tarbiyachisi Toshbuvi Pirmazarova til, nutq va savodxonlikka o'rgatish bo'yicha, "Sog'lom ovqatlanish tartibi", qisqa muddatli guruhda esa "Shodon vitaminchalar" mavzusida mashg'ulotlar olib bormoqda. Unda bolajonlar meva va sab-

zavotlarda mavjud vitaminlar bilan tanishadi. Tozalikka rioya qilish bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi.

Shuningdek, bolajonlar bilan Mustaqilligimizning 28 yilligi shodiyonalariga bag'ishlangan tadbirga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmogda.

Burhon RIZOQULOV olgan suratlari.



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-829. Tiraji 11632.
Hajmi 4 bosma tabaq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Nabvatchi muharrir: Abror Umarqulov.
Nabvatchi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — 00.30 Topshirildi — 00.55

123 56